

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**



**E T I K A**

**TOSHKENT 2007**

Ushbu uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida tayyorlangan bo'lib, qishloq ho'jalik Oliy o'quv yurtlari yosh muallimlarning "Etika" fanidan ma'ruza o'qishlari va amaliy mash'ulot olib borishlari hamda bakalavriyat talabalarining bu fanni o'zlashtirishlariga yordam tariqasida yozilgan.

**Tuzuvchilar:** Sa'dullaev Ne'matilla  
Ho'jamurodov Ibrohim

**Taqrizchilar:** Musaev Nuriddin - tarix fanlari doktori,  
professor  
Imomalieva Ra'no - falsafa fanlari doktori,  
professor

Ushbu uslubiy qo'llanma Toshkent Davlat agrar universiteti Gumanitar ta'lim Kengashi yilishida (2006 yil 2 may) muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

**Etika fanidan ma'ruza va amaliy mash'ulot uchun mavzular, ajratilgan soatlar va tavsiya etilgan adabiyotlar**

| <b>№</b> | <b>Mavzular</b>                                     | <b>Ajratilgan soatlar</b> | <b>Tavsiya etilgan adabiyotlar</b> |
|----------|-----------------------------------------------------|---------------------------|------------------------------------|
| 1        | Etika fani predmeti, maqsad va vazifalari           | 2                         | 1,2,7,8,9,10,11,12,17              |
| 2        | Qadimgi dunyo mutafakkirlari ahloqiy tarbiya haqida | 2                         | 7,9,10,11,12,16,17                 |
| 3        | O'rta Osiyo mutafakkirlarining ahloqiy ta'limotlari | 2                         | 5,6,7,8,10,11,13,16,17             |
| 4        | Ahloqning mezoniy tushunchalari                     | 2                         | 3,4,5,12,14,15,18                  |
| 5        | Fuqrolik jamiyati va ahloqiy madaniyat              | 2                         | 3,4,5,12,14,15,18                  |

**Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi". T., "Sharq". 1999 y.
2. Karimov I.A. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" T., "Sharq" 1997 y.
3. Karimov I.A. "Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezon bo'lsin" T., "O'zbekiston", 1994 y
4. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" T., "O'zbekiston" 2000 y.
5. Karimov I.A. "Donishmand halqimizning mustahkam irodasiga ishonaman". T., "O'zbekiston" 2000 y.
6. Karimov I.A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari" T., "O'zbekiston" 1998 y.
7. Forobiy "Fozil odamlar shahri". T., "Meros", 1990 y.
8. Navoiy "Mahbub ul- qulub" asarlar. 13 tom T., "O'qituvchi" 1995 y.
9. Konfutsiy "Pand- o'g'itlari", "So'lom avlod uchun" jurnali 1997, 5-6 sonlar
10. Abdulla Sher "Ahloqshunoslik" ma'ruzalar matni T., 2000 y.
11. Ho'jamurodov I.R., Sa'dullaev N. "Ma'naviyat insoniy go'zallikdir" T., "Mehnat" 1998 y
12. Ho'jamurodov I.R., Sa'dullaev N. "Ma'naviy barkamollik ziynatdir" T., "Mehnat" 2001y.
13. "Odob bo'stoni va ahloq gulistoni" T., "Fan", 1994 y.
14. "Islom odobi va madaniyati" T., "O'zbekiston", 2000 y.
15. "Mutafakkirlar ahloq- odob haqida" T., "Adolat", 1995 y
16. "Etika" O'quv qo'llanma. T., ToshDAU, 1993 y.
17. Sa'dullaev N., Ho'jamurodov I. "Estetika" ToshDAU, 2006 y
18. Tohir Malik "Odamiylik mulki". T., "Movarounnahr" 2005 y.

## KIRISH

Mustaqil O'zbekistonning jahon miqyosiga chiqishi, ko'pdan- ko'p horijiy mamlakatlar bilan har taraflama mustahkam aloqalar o'rnatilayotgani, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy- siyosiy sohalarida yuz berayotgan tub o'zgarishlar fuqarolar faolligini, buyuk kelajak sari intilishini kuchaytirib yubordi.

Ana shunday vaziyatda har bir fuqaroning yuksak ongli, chuqur bilimli, umuminsoniy madaniyat, ma'naviyat, ahloq, odob, tadbirkorlik, ishbilarmonlik egasi bo'lishini hayotning o'zi taqazo etmoqda. Bularsiz mustaqil davlatning moddiy va ma'naviy asoslarini yaratib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan yoshlarni insoniy go'zallik, odob- ahloqiy ruhda tarbiyalash davr talabi.

Birinchidan, ota- onaga, oilaga va barcha insonlarga mehr- shavqat bilan qarash, el- yurt manfaati, tinchligi va obodligi yo'lida fidoyilikni uy'otish zarur.

Inkkinchidan, go'zal hulk- atvor, oliyjanob insoniy fazilatlarini shakllantirish lozim.

Buyuk mutafakkir Imom al- Buhoriy "Adab durdonasi" asarida shunday yozadi:

"Yahshi yoki yomon odamlar bo'lishi mumkin, ammo farzandlar uchun yomon ona hech qachon bo'lmaydi. Ayollar ko'pu biroq ona yagonadir. Ona har doim biz uchun eng yaqin, eng mehribon va hamdard insondir. Har bir inson o'z onasi oldida doimo qarzdordir"

Alisher Navoiy bobomiz shunday yozadi:

Onalarning oyo'i ostidadur,

Ravzai jannatu rizvon bo'i,

Ravza bo'i visolin istar esang,

Bo'l onaning oyo'in tupro'i,

Abu Rayhon Beruniyning ushbu so'zlari ham juda qimmatli:

"Insonning tashqi yoqimli qiyofasi to'ridan to'ri uning ahloqiy qiyofasi bilan bo'liq. Inson vaqtida ko'z va qavoqlarini toza tutishi, ularga surma qo'yishi, tirnoqlarini olib turish, sochini silliq qilib yurish insonning go'zalligi va pokligini ta'minlaydi.

Buyuk ajdodlarimizdan qolgan ana shunday bebaho hikmatli so'zlar hozirda o'z ahamiyatini saqlab turibdi. Ularni yoshlar ongiga singdirib, ma'naviy barkamol kishilar etib tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

Mamlakatimiz yoshlari bir nihol bo'lsa, ahloqiy tarbiya quyosh nuridir. Nur emib voyaga etgan nihol baquvvat, durkun o'sadi, mo'l va lazzatli serhosil meva beradi.

Biz qurayotgan huquqiy, demokratik, adolatli, insonparvar davlatning asosi ahloqiy barkamol, ma'naviy go'zal insonlarni tarbiyalashdir. Ana shu vazifani amalga oshirishda "Etika" fani yordam beradi degan umiddamiz.

## 1 - Mavzu: Etika fani predmeti, maqsadi va vazifalari.

Reja:

1. Etika falsafiy fan sifatida.
2. Etika fanining tadqiqot doirasi.
3. Etika fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro munosabati.
4. Etika fanining ahamiyati va asosiy vazifalari.

Etika - yunoncha so'zdan olingan bo'lib, ahloq, hulq, odob ma'nolarini ifodalaydi. Etika falsafiy fan hisoblanib ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida ahloqning kelib chiqishi, ahloqiy tarbiyaning taraqqiyot bosqichlari, ahloqning ilmiy- nazariy asoslari, ahloqning mezoniy tushunchalari, ahloqiy tarbiya shakllarini o'rgatadi.

"Etika" atamasini birinchi bo'lib qadimgi yunon faylasufi Arastu (millodan avvalgi 384-322 yillar) muomilaga kiritgan.

U barcha fanlarni uch guruhga bo'ladi: nazariy, amaliy va ijodiy. Birinchi guruhga falsafa, matematika va fizika; ikkinchi guruhga- etika va siyosat; uchinchi guruhga esa san'at, hunarmadchilik va amaliy fanlarni kiritadi. O'sha davrdan boshlab ahloq, odob, hulq haqidagi ta'limotlar "Etika" deb ataldi va fan darajasiga ko'tarildi.

Etika ahloq haqidagi ta'limot sifatida ahloqdan keyin, ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumining inqirozi va sinfiy ta'limotning qaror topish bilan vujudga kelgan. Etika ta'limotlari paydo bo'lmasdan avvalroq kishilar ma'lum bir qoida, urf-odat, an'analarga rioya qilganlar. Davr o'zgarishi bilan etika ham falsafiy, nazariy, tarihiy fan sifatida rivojlanib, takomillashib bordi.

Hozirda "Etika", "Ahloqshunoslik" bir hil mazmundagi atama sifatida ishlatiladi. Ahloq - (arabcha hulqning ko'pligi) kishilarning tarihan tarkib topgan hulq-atvori, yurish - turishi, ijtimoiy va shahsiy hayotidagi o'zaro mavqe, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga soluvchi ma'lum bir norma va qoidalar yi'dinsidir. Ahloq normalari kishilarning hatti- harakatlarida o'z ifodasini topadi. Ular ahloqli yoki ahloqsiz deb baholanishi mumkin. Davr o'zgargan sari ahloq ham o'zgarib boradi, rivojlanadi, takomillashib, ma'naviy madaniyatning ko'rinishlaridan biriga aylanadi.

Etika kishilarni halol, pok, mehnatsevar, elparvar, adolatli, imon- etiqodli bo'lib faoliyat yuritishiga da'vat etadi. Shu bois etika ahloq falsafasi, ezgulik falsafasi deb ataladi.

Etika bayoniy, nazariy, amaliy hislati bilan ajralib turadi. U insoniyat o'z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalari hikmatlar, naqllar, matal-maqollar, rivoyat, hikoyat tarzida bayon etadi, kishilarni ahloqiy qonun-qoidalarga o'rgatadi, hulosalar chiqaradi.

O'z davrining buyuk donishmandlari bo'lgan Aflotun, Arastu, Epikur, Tsitseron, Seneka, Avgustin, Farobiy, Ibn Sino, ~azzoliy, Spinoza, Kant, Gegel, Feyerbah va boshqalar etika nazariyasiga oid ta'limotlar yaratdilar. Etikaning amaliy hususiyatlari Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", Jomiyning "Bahoriston", Navoiyning "Mahbub ul- qulub"; Montenning "Tajribanoma", Loroshfukoning "Hikmatlar", Gulhaniyning "Zarbulmasal" asarlarida o'z ifodasini topgan.

Etika barcha ijtimoiy fanlar bilan o'zaro yaqin aloqada rivojlanib, nazariy va amaliy jihatdan taraqqiy etib bormoqda.

Ayniqsa, uning nafosatshunoslik (estetika) bilan aloqasi qadimiy va o'ziga hos. Avvalo, insonning har bir hatti- harakati va niyati ham ahloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo'ladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik (ichki go'zallik) ham nafosat ( tashqi go'zallik) hususiyatlarini mujassam qiladi. Shu bois Suqrot, Aflotun, Farobiy singari qadimgi faylasuflar ko'p hollarda ahloqiylikni ichki go'zallik, nafosatni tashqi go'zallik tarzida talqin etganlar. Bundan tashqari, ma'lumki, san'at nafosatshunoslikning asosiy tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Har bir san'at asarida esa ahloqning dolzarb muammolari ko'tariladi va san'atkor doimo o'zi yashayotgan zamonda erishilgan eng yuksak ahloqiy darajani badiiy qiyofalar orqali yoki bilvosita aks ettiradi. Demak nafosatshunoslik bevosita o'rganayotgan har bir badiiy asar ayni paytda, ma'lum ma'noda, ahloqshunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq etilayotgan bo'ladi.

Ahloqshunoslikning dinshunoslik bilan aloqasi shundaki, har ikkala fan ham bir hil muammo- ahloqiy mezon muammosini hal etishga qaratilgan. Chunki umumjahoniy dinlar vujudga kelguniga qadar mavjud bo'lgan ma'lum urf- odatlar va qadriyatlar muayyan diniy qonun- qoidalarga, muqaddas diniy kitoblarga katta ta'sir ko'rsatgan. Ayni paytda, dinlar ham ahloqqa ana shunday ta'sir o'tkazganlar.

Chunonchi, islom dinini oladigan bo'lsak, Qur'oni karim, Hadisi sharif, Ijmo' va muayyan fatvolardagi mezonlar hamda talablar musulmon Sharqi millatlari ahloqiy darajasining shakllanishida katta ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, komil inson muammosi har ikkala fan uchun umumiy hisoblanadi. Farq shundaki, ahloqshunoslik bu muammoga zamonaviy tarbiya nuqtai nazaridan yondoshadi.

Ahloqshunoslikning huququqshunoslik bilan aloqasi uzoq tarihgaga ega. Ma'lumki juda ko'p hollarda ahloq me'yorlari bilan huquq me'yorlari mohiyatan va mazmunan bir hil bo'ladi. Shunga ko'ra, ahloqni jamoatchilik asosidagi huquq, huquqni esa qonuniylashtirilgan ahloq deb atash mumkin. Zero, ahloqshunoslik bilan huquqshunoslikning tadqiqot ob'etlari ko'p jihatdan o'hshash, ular faqat yondashuv usuli nuqtai nazaridan farq qiladi, ya'ni huquq me'yorlarining bajarilishi, odatda, mahsus adliya idoralaridagi lavozimli kishilar orqali majburiy sanktsiyalar vositasida yo'lga qo'yiladi: ahloq me'yorlari esa umumiy qabul qilingan milliy urf- odatlar, jamoatchilik fikri yordamida, alohida belgilangan kishilar tomonidan emas, balki muayyan ijtimoiy guruh, jamiyat tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, huquqshunoslik kasbi uchun muhim bo'lgan amaliy ahloq jihatlarini ahloqshunoslikning huquqshunos odobi deb ataladigan mahsus sohasi tadqiq qiladi va tavsiya etadi.

Ahloqshunoslik pedagogika bilan ham chambarchas aloqada. Pedagogikadagi shahsni shakllantirish, tarbiyalash, ta'lim berish jarayonlarini pand- nasihatlarisiz, odobnoma darslarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois ahloqshunoslik o'zining nazariy va ayniqsa amaliy jihatlari bilan pedagogikaning asosi hisoblanadi. Zero,

maorif tizimidagi ta'lim- tarbiya o'zini har bir qadamda ahloqiy tarbiya sifatida namoyon qiladi.

Qadimdayoq ahloqshunoslikning ruhshunoslik ( psihologiya) bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Zotan, bu ikkala fan kishilar hatti- harakati, fe'l-atvori va mayl- istaklarini o'rganadi. Lekin bu o'rganish ikki hil nuqtai nazardan olib boriladi: ruhshunoslik u yoki bu hatti- harakat, fe'l- atvor, sababiy asos (motiv) larining ruhiy tabiati va shakllanishi shart- sharoitlarini ochib beradi, ahloqshunoslik ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarning ahloqiy ahamiyatini tushuntiradi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi sharofati bilan yangi jamiyat barpo etish jarayonida etika, ahloqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning quyidagi qimmatli fikrlarini keltirish joiz: "Aslini olganda, ahloq- ma'naviyatning o'zagi", "Inson ahloqi shunchaki salom- alik, hushmuomalalikdangina iborat emas. Ahloq- bu, avvalo, insof va adolat tuy'usi, iymon halollik degani". Bu fikrlar, bir tomondan, eski tuzumdan qolgan ahloqsizlik ko'rinishlariga, loqayd qarovchilarga va ahloqshunoslikni engil-elpi, ikkinchi darajali fan sifatida tushunuvchilarga adolatli zarba bo'lsa, ikkinchi tomondan, ahloqning yangi jamiyatimizdagi ulkan mavqeini hamda ahloqshunoslikning jiddiy nazariy tadqiqotlarga suyanishi kerakligini ta'kidlaydi. Zero hozirgi sharoitda totalitar tuzum ta'qiqi yohud ta'qibiga uchragan milliy va umuminsoniy ahloqiy qadriyatlar hamda qadimiy urf- odatlarimiz, an'analarimiz yangi zamon ma'naviy qadriyatlarini yaratishda asos bo'lib hizmat qilishi mumkin.

Ana shu yangilanish jarayonida ahloqshunoslikning o'z o'rne bor. Uning mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarning ahloqiy darajasiga ma'sullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo'lib kelgan ahloqqa yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa bo'ladi. Ayni paytda, ularni ahloqshunoslik fani oldida turgan vazifalarning bir qismi, ta'bir joiz bo'lsa, milliy ahloqshunoslik vazifalari deb atash mumkin.

Zero fanimizning hozirgi kunda umumjahoniy global muammolarni hal qilishdek muhim vazifasi ham borki, u haqda alohida to'htamaslikning iloji yo'q.

Shunday qilib, etika ijtimoiy taraqqiyot mahsuli bo'lganligi uchun unga o'zgarib boruvchi ijtimoiy borliq ta'sir ko'rsatib turadi.

U o'zida jamiyatda barcha o'zgarishlar va ziddiyatlarni namoyon etadi. Shu bilan birga u real hayotni aks ettiradi, baholash shakli va uni o'zgartirish vositasi, kishilar o'rtasidagi aloqa hamda shahsni tarbiyalash vositasidir.

#### **Tayanch tushunchalar**

Etika, ahloq, odob, hulq, zamonaviy ahloqshunoslik, etosfera

#### **Takrorlash uchun savollar**

1. Etika iborasi nimani anglatadi?
2. Odob deganda nimani tushunasiz?
3. Hulq va odob o'rtasida qanday farq bor?
4. Etika fani oldida qanday vazifalar turibdi.

## **2- Mavzu: Qadimgi dunyo mutafakkirlari ahloqiy tarbiya haqida**

Reja:

1. Avesto- qadimgi dunyoning ahloqiy qomusi
2. Qadimgi Yunoniston mutafakkirlarining ahloqiy qarashlari
3. Qadimgi Rimda ahloqiy ta'limotlar

1. Insoniyat ma'naviy olamining tarkibiy qismi bo'lgan Zardushtizm dini qadimiy ilohiy ta'limot bo'lib, tabiat, jamiyat inson taqdiri va orzu- intilishlarini ifodalovchi bebaho hazinadir. Ayni holda insonlarga haqiqiy odil yo'lni ko'rsatuvchi uni yaratgan ilohiy qudratga ishonchni uy'otuvchi, imon - e'tiqodni mustahkamlovchi ta'limotlar majmuasidir.

Tarihchi olimlarning qayd etishicha zardushtizm dini eramizdan avvalgi 7-8 asrlarda O'rta Osiyoda maydonga kelgan. Bu din asoschisi Spitaman Zardusht eramizdan avvalgi 570 yilda tu'lgan. U o'z davrining mashhur ilohiyotchisi, faylasufi, shoiri hisoblangan.

Avestoda Spitaman Zardusht tu'lgan va o'z faoliyatini boshlagan mamlakat haqida ham quyidagi so'zlar uchraydi. "Shunday mamlakatni, ko'p sonli lashkarlarni botir sarkardalar boshqaradilar, baland to'lar bor, yaylov va suvlari bilan go'zal, chorvachilik uchun barcha narsa muhayyo, chuqur, suvga mo'l ko'llari bor, keng qir'oqli va kema yurar daryolari o'z to'lqinlarini Iskata (Skifiya), Pauruga, Mouru (Marv), Hareva (Ariya) Bava (Su'd hududida), Huvayrizima (Horazm) mamlakatlari tomon elituvchi daryolari bor".

Darhaqiqat, "Avesto"da tasvirlangan shaharlar O'rta Osiyodagi Amu va Sirdaryo orali'ida joylashganligi aniq ko'rsatilgan. Shu nuqtai nazardan zardushtiylikning kelib chiqishi va tarqalishi Horazm, So'd, Far'ona, Baqtriyadir deb ayta olamiz.

Avestoning "Yasht" qismida bayon qilingan fikrlarga ko'ra Zardushtning diniy ta'limotini yurtdoshlari qabul qilmay, unga nisbatan salbiy munosabatda bo'ladilar. Oqibatda u Vatanni tark etib, qo'shni davlatga ketadi. Shu davlat shohi Vishtaspa va malika Hutosa Zardusht ta'limotini qo'llab - quvvatlaydilar. Asta- sekin bu ta'limot qo'shni yurtlarga ham tarqaladi.

Shoh Vishtaspa farmoniga ko'ra "Avesto"ning qadimiy 1200 bobdan iborat "Gotni" pandnomasi yozma ravishda shohning otashkadasiga topshirilgan.

Avestoda birinchi bor muqaddas olov "Atarhurra" Ayrian Vodjada yoqildi deyiladi. "Ayrian vodja" geografik va iqlimiy tavsifi Horazmnikiga mosdir. So'ngra "odamlar va chorva mollarga mo'l" So'd (Su'd) "Qudratli va muqaddas" Mouru Marv, "Baland ko'tarilgan bayroqlar mamlakati" Bahti (Baqtriya) tilga olingan.

Tarihdan ma'lumki, Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoni bosib olgan davrda juda ko'p moddiy va ma'naviy boyliklar qatori "Avesto" kitobini ham yondirib yo'q qilib yuborgan. Ruhoniylar qatl etilgan. Abu Rayhon Beruniy ana shu voqealarni tasdiqlovchisi quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "Podsho Doro Ibn Doro hazinasida Avestoning o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan



bir nushasi bor edi. Iskandar otashhonalarni vayron qilib, bularda hizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yuboradi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri Avestoning beshdan uchi yo'qolib ketdi. Avesto o'ttiz "nask"edi. Majusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasi qoldi. Biz Qur'on bo'laklarini haftiyak deganimizdek, nask Avesto bo'laklaridan har bir bo'lakning nomidir"1.

Eramizning VIII- asridagi arab bosqini davrida ham juda ko'p tarihiy, badiiy, diniy adabiyotlar qatorida "Avesto" kitoblari ham yoqib yuborilgan. Halqimiz ma'naviy merosining noyob hazinasi bo'lgan "Avesto" keyingi asrlardagi pahlaviy, fors tillaridagi talqin asosida bizgacha etib kelgan.

Eng qadimgi jahon dinlaridan biri hisoblanuvchi zardushtizm eramizdan avvalgi VII-VIII asrlarda O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon, Hindiston, Kichik Osiyo halqlarining asosiy dini hisoblangan. Eronda rasmiy davlat diniga aylangan. Arab istilosigacha O'rta Osiyoda ham asosiy din sanalgan. Hozirgi kunda Zardushtizmga e'tiqod qiluvchilar Hindistonning Bombay, Gujarat shtatlarida, Eronning ba'zi chekka viloyatlarida uchraydi. "Avesto" ning to'ldirilgan nusxalari Bombay, Kalakuta shahar kutubhonalarida mavjud.

Zardushtizmning muqaddas kitobi "Avesto" da O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon halqlarining islomgacha bo'lgan davridagi ijtimoiy- iqtisodiy hayoti, olam, tabiat, jamiyat to'risidagi tasavvurlari, diniy marosimlari, urf- odatlari o'z ifodasini topgan.

"Avesto" da o'zaro qabilaviy urushlar, behuda qon to'kilishlar qoralanadi. Tinch yashashu, hayot kechirish va dehqonchilik, chorvachilik bilan shu'ullanishga da'vat etiladi.2

Har bir inson o'lgandan so'ng bu dunyoda qilmishiga yarasha abadiy rohat jannatga yoki do'zohga tushadi degan `oya din asosini tashkil etadi. Barcha yahshiliklar Ahura Mazda, yomonliklar Ahriman timsolida bayon qilindi. Bu dinga e'tiqod qiluvchilar har kuni besh mahal yuvinib quyoshga qarab uni olqishlash shart bo'lgan. Ibodathonalarda doimiy ravishda olav yonib turgan "Avesto"da suv, havo, tuproq, olov muqaddas sanaladi. Yahshilik, hallolik, mehnatsevarlik, adolat, tinchlik kabi ezgu tuy`ular asosiy o'rinda turadi. Unda oila, fuqarolik burchi, huquqiy munosabtlar ham o'z ifodasini topgan. Tabiatni muhofaza qilish, tozalik, gigiena haqidagi o'gitlarning hozirgi kunda ham ahamiyati katta. Zardushtizm dini bilan bo'liq urf- odatlar, marosimlar asrlar osha avloddan- avlodga o'tib kelmoqda. Yurtimizning ayrim viloyatlarida kelin- kuyov olov atrofida aylantirilib, so'ngra go'shangaga olib kiriladi. Qabr ustiga chiroq yoqiladi.

"Avesto"dagi inson madhi, halollik, ayol talqini, haqiqat madhi, uning eng oliy ne'mat ekanligi, tabiatni muhofaza qilish, e'tiqod, poklik, ahd- paymon, ona zamin, ba'ri kenglik va boshqa qator ahloqiy fazilatlarining hozirgi kunda yanada ahamiyati oshdi.

"Bergan so'zning ustidan chiqish"- deyiladi "Avesto" da - unga sodiq qolish, savdo sotiqda shartnomalarga qat'iy amal qilish, qarzini vaqtida to'lash, aldamchilik hiyonatdan holi bo'lish" majburiyati yuklangan. Yana bir boshqa satrlarda halollik, poklik, e'tiqod nafasini ko'ramiz. "Avesto"ning quyidagi satrlariga e'tiborimizni qaratamiz:

"Ey olamni yaratgan zot!"

Ey haqiqat!

Zamini hammadan ko'ra bahtliroq bo'lgan dunyodagi birinchi joy qaer?

Ahura Mazda javob beradi:

- Ey Sipitam Zardusht?

Bunday joy qo'lda pokiza o'tin va yangi so'lgan sut tutgan, o'z amal e'tiqodiga dilda ishongan sodiq, o'ktam ovoz, keng yaylovlar ishi bilan ma'rur va bu yaylovlarni qo'shiqqa- solgan bir Ashavan oyoq bosgan zamindir".

"Avesto"ni o'qib tushunish, ahloqiy qadriyatlarini kengroq tushunishga yordam beribgina qolmasdan, o'zlikni anglashga, millatimiz, hududimizda yashayotgan halqlarning hususiyatlarini bilishga, halqimizdagi iymon- e'tiqod, insof- diyonat, sahovat, halollik, mehr- oqibat, sharmu- hayo kabi fazilatlarni yanada yuksaltirishga, ayniqsa yoshlarimizning irodasini baquvvat qilish iymon- e'tiqodini shakllantirishga hizmat qiladigan muhit yaratishga yordam beradi.

"Avesto" nafaqat diniy majmuagina bo'lmay, balki, o'z davridayoq umumbashariy maslalani o'rta tashlab, inson ma'naviy kamoloti taraqqiyoti uchun buyuk hissa qo'shuvchi qomusiy kitob deya sharaflangan. Unda tabiat, jamiyat, madaniyat, adabiyot, til, iqtisod, tibbiyot, qishloq ho'jaligi bilan bo'liq masalalar ham o'z ifodasini topgan.

Shu sababli ushbu kitob juda ko'p mamlakatlarga tarqaldi, insonlar ushbu kitobdagi hikmatli iboralar, duolar, she'riy madhiyalarni qo'shiq qilib kuylab keldilar.

Buyuk bobomiz Abu- Rayhon Beruniy "Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar" nomli tarixiy asarida "Avesto" ning qo'lyozmasi o'n ikki ming molning terisiga oltin harflar bilan yozilganligi habarini beradi. Demak ushbu qadimiy kitobning qimmatini nihoyatda bebaho bo'lgan.

"Avesto" asrlar osha insoniyatni kurashga, mehnatsevarlik, hallolik, mardlik, oliyanoblikka chorlab keldi.

Ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va buz'unchilik, yahshilik va yomonlik, yoru'lik va zulmat o'rtasidagi kurashni madh etuvchi oyat va kalimalar insoniyat ma'naviy olamini boyitib kelgan.

Unda ibtidoiy davrdan feodal davrgacha bo'lgan ahloqiy asosini uchta narsa tashkil etadi. Bular yahshi so'z, yahshi fikr yahshi ish.

Yahshi fikr Ahuramazda timsolida aks etsa, yomon fikr Ahriman hudosining hislati hisoblanadi. "Avesto"ning tub mohiyati insonlarning tinch yashashi, bir- biriga samimiy munosabatda bo'lishi, o'zaro yordam berib, bir-

birini doimo qo'llab quvvatlanishini ta'riflashdan iborat. Ayni holda zo'ravonlik, bosqinchilik, shuhratparastlik, qonunga rioya qilmaslik, hasad, tuhmat, jahl bilan ish tutish, va'daga vafosizlik qattiq qoralanib gunoh sanaladi.

"Avesto"dagi ushbu misralar mohiyati o'ta chuqur va umumbashariydir:

Muqaddas imon kuchila buzing,

Ko'ngillarda kinu `arazni.

Quloqlarin berkiting uning,

Panjasidan tuting beomon,

Oyoqlarin majaqlab tashlang

Adovatni bo`lang (bermang unga yon)

Zero, insoniyatni chin insoniylik, barkamollik va komilikka chorlab turuvchi ushbu misralar hozirda ham ahamyatini saqlab turibdi.

O'zbekiston respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning tarixchi olimlar bilan qilgan suhbatida aytilgan ushbu so'z, "Avesto"ga berilgan katta bahodir.

"Eng mo'tabar qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto"ning yaratilganligiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo orali`ida mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy,tarihiy merosidir. "Avesto" ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarihiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi"

"Avesto" chin ma'nodagi ma'naviyat bulo`idir. Uning har tomchisi dillarni nurga, ziyoga to'ldiradi. Zulmat va jaholatni chekintiradi. Hayotga, insonlarga, olamga mehr- muhabbat uru'ini sochadi. Shu nuqtai nazardan "Avesto" ni o'qish, o'rganish kelajak yoshlar uchun farz ham qarzdir.

2. Etika ta'limotlarining birmuncha aniq ifodalarini qadimgi Yunoniston va Rimda ko'rish mumkin. Yunon faylasuflari ahloqiy qonunlar umumbashariy harakterga egami, ular azaldan mavjudmi yoki ularni inson o'zi yaratganmi, hayotning ma'nosi nima kabi savollarga javob berishga uringanlar.

Suqrot (er.av. 469-399 y) "Real dunyo hudo tomonidan yaratilgan, insonning ahloqiy hislatlari hudoga bo'lgan ishonchdan iborat" degan umumiy fazilatni tar'ib qiladi, fazilat bilan bilimni bir narsa deb biladi, fazilat fan tufayli qo'lga kiritiladi, unga faqat imtiyozli odamlar erishadi. Avom halq bunday fazilatdan mahrumdir, ular itoatkor, barcha tartib- qoidalarga rioya etishlari, bo'layotgan voqealarga befarq bo'lishlarini maslahat beradi. Bu `oya mantiqiy jihatdan rivojlantirilib quldorlik aristokratiyasining `oyaviy quroliga aylantirilgan.

Demokrit (er. av. 460-370 y) ahloqiy `oyalari asosida inson hayotdan mamnun bo'lish, o'z burchini bajargan holda jasur va odobli bo'lish kabi `oyalari yotadi.

Demokrit "inson hulqining to`ri yoki noto`ri hatti- harakatlarining asosi aqldir. Yuksak ahloqiy kamolotga inson bilim olish orqali erishishi mumkin", deb ta'kidlaydi. Ammo Demokritning ahloqiy qarashlari cheklangan edi. U halq

ommasi va qullardan jirkanadi. U ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor beradi. "Insonni inson qilib etishtiruvchi narsa- tarbiyadir", deb ta'lim - tarbiya masalasida muhit ta'siri ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etadi.

Aflotun (er. av. 427-347 y) falsafa, jumladan etikada ob'ektiv idealist edi. Uning etikasi ruh haqidagi ta'limotga asoslangan. Aflotun fikricha, ahloq manbai inson tabiatida emas, balki insonga bo'liq bo'lmagan, abadiy, ruhda. Ruh uch qismdan - aql, iroda, hissiyotdan tashkil topgan. Aql- oliy fazilat bo'lgan donolikning asosi, iroda- mardlikning manbai, hissiyotni saqlay bilish fazilati aqllilikning asosidir. Fazilat adolat bo'lib, unda donolik, mardlik mujassamlashgan. Real dunyoni yovuzlik manbai, demak u haqiqiy dunyo emas, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson ongi ruhlar (mangulik) olamida hudoning doimiy nazoratida bo'lishi lozim. Insonning ahloqiy hayoti shu oliy "yahshilik `oyasi"ga intilishidan iborat, deb inson hulqini hudo hohishiga bo'ysundiradi.

Aflotun fikricha ahloqiy fazilatlar yuqori tabaqa kishilar aristokratlar, quldorlargagina hos, halq ommasi faqat bo'ysunish, itoatkorlik ahloqigagina mansub, qullar esa hech qanday fazilatga ega emas, deb u ahloqiy tushunchalarni mutlaqlashtirdi. Bu o'z navbatida jamiyat siyosiy tuzulishining o'zgarmasligi `oyalarini himoya qilishga va quldorlik davlatini ideallashtirishga xizmat qiladi.

Aflotun (er. av. 384-322 y) o'zining "Nikomah etikasi" va "Siyosat" asarlarida ahloq haqidagi fikrlarni sistemalashtirib, unga etika deb nom berdi. Uning predmeti, vazifasi insonning oliy maqsadi- yahshilikka, bahtga intilishni o'rganishdan iborat deb bildi.

Ahloqning asosini real hayot, inson turmushi bilan belgilashga harakat qildi, ahloqning jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi, ya'ni tabiat inson qo'liga aqliy va ahloqiy kuch bergan, unda to'rin foydalana bilish lozim, aks holda tuban mavjudod bo'lib qoladi deydi.

Boshqacha aytganda, tabiat ahloqiy fazilatli bo'lish imkoniyatini yaratadi, ahloqiy fazilatlar inson faoliyatida namoyon bo'ladi, ya'ni ahloqiy fazilat, hatti-harakat demakdir, bunda tarbiyaning roli kattadir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, Arastu ahloqiy fazilatlarini tahlil etganda aqliy fazilatlariga, ya'ni bilim, donishmandlik, onglilikka ahamiyat beradi, ammo ahloqiy fazilatlarini aqliy fazilatlariga bo'ysundirgan holda ifodalaydi. Bu fazilatlar faqat ozod kishilar va zodogonlarga hosdir, deb faqat aql faoliyatini tan oladi va qullar bu fazilatlar egasi bo'la olmaydi, deydi.

Arastu etikasida adolatlik fazilati muhim rol o'ynaydi. Boshqalar haqida `amhurlik qilish- bu jamiyat haqida `amho'rlik qilishdir. Adolat tenglikdan iborat, tenglik esa erkin kishilarga hos, qullar bundan istisnodir.

Shunday qilib, Arastu quldorlar mafkurachisi sifatida quldorlik jamiyatini abadiylashtirishga, siyosiy, ahloqiy, moddiy jihatdan tengsizlikni tabiiy, deb hisoblaydi va o'z ta'limoti bilan shu jamiyatni himoya qilishga intildi.

Epikur (er. av. 341-270 y) inson hatti- harakatining asosiy maqsadi rohat-faro`atga erishishdan iborat, deb hisoblaydi.

Epikur ahloqni dindand ajratadi, baht tushunchasini ahloqning negizi deb hisoblaydi, uni donolik bilan bo`laydi. Etikaning vazifasi insonga oqilona orom olishga, mamnunlikka erishishga, tabiiy va zaruriy istaklarni ongli ravishda qondirishga, mazmunsiz, `ayri tabiiy hohish- istaklarni yo`qotishga o`rganishdan iboratdir. Baht asosida hayotdan mamnun bo`lish bahramandlik yotadi. Bu esa yahshi turmush va osoyishtalikka olib keladi, bahtsizlikning manbai azob-uqubatdir, bahtga eirishish yo`lida inson barcha to`siqlarni uloqtirib tashlamo`i lozim. Bu to`siqlarning eng zararlisi dinga ishonish va hudodan qo`rqishdir, deb individualistik `oyani ilgari suradi va jamiyat uning nazar- e`tiboridan tushib qoladi.

Epikur barcha rohatlarni ikki turga jismoniy va ma`naviy (ruhiy) turga bo`ladi. Jismoniy rohatlashnish- kishilarning oziq- ovqat uy-joy, kiyim- kechak va boshqa narsalarga bo`lgan ehtiyojning qondirish, ma`naviy rohatlanish- bilish va do`stlikdan topiladigan huzurdir. U ma`naviy huzurni o`tkinchi, deb jismoniy rohatlanishdan ustun qo`yadi. Shunday qilib, epikurizmning ahloqiy ta`limoti inson shahsining dunyoviy real olam mavjudoti deb qaraganligi bilan muhimdir, chunki dunyoviy baht, shahsning dunyoviy qadr- qimmatini to``risidagi fikr, insonparvalik printsipli epikurizm qimmatini oshiradi. Shuningdek hurfiklilik tarixida muhim ro`l o`ynaydi.

Umuman antik faylasuflar kishi faoliyatining maqsadi- bahtga erishish, rohatlanish, foyda, manfaatdor bo`lish, deb qaraganlar, rohatlanishni birinchi o`ringa qo`yganlar, biroq shunga qarmay, kishi o`z huzur- halovatining quli bo`lib qolmasligi, har bir narsada me`yor bo`lishini ta`kidlaganlar. Chunki antik faylasuflarning ko`pchiligi kishining ijtimoiyligini tushunmasdan, shuningdek ijtimoiy hodisalarni ruhiy omillar bilan, kishining hatti- harakatlarini biologik omillar bilan tushuntirishga urunganlar. Shunga qaramay, ular kishilarni bu real dunyoda bahtli bo`lishi uchun kurashganlar va ahloqning real dunyoviy asosini topishga intilganlar.

Qadimgi Yunon ahloqshunoslari ilmiy an`analarini Tsitseron, Lukretsiy Kar, Seneka, Epiktet, Mark Avreliy, Sekst Empirik singari Qadimgi Rim mutafakkirlari davom ettirdilar.

Tit Lukretsiy Kar (millodan avvalgi 99-44 yillar), Epikur ahloqiy ta`limotining izchil himoyasi sifatida, mashhur "Narsalarning tabiati" degan dostonida ruh va ijodning ajralmas aloqasini ta`kidlaydi, ruhning o`lishi to``risida fikr yuritadi, insonning o`lim qo`rquvidan halos bo`lishida ahloqiy ma`no borligini aytib o`tadi. O`lim qo`rquvidan va ma`budlar oldidagi qo`rquvidan halo bo`lgan kishi bahtli yashashi mumkin, aql- idrok va his- tuy`ullar sharofati bilan narsalar haqida u haqiqiy tasavvurga erishadi.

Lutsiy Anney Seneka (miloddan avvalgi 5- milodiy 65 yillar) ham yozuvchi, ham ahloqshunos, faylasuf. Uning "~azab haqida", "Shafqat haqida",

"Bahtli hayot haqida" singari ahloqshunoslikka doir risolalari ko'pchilikka ma'lum. Ayniqsa, "Lutsiliyga ahloqiy maktublar" asari mashhur. Senekaning fikriga ko'ra, dunyo moddiy biroq, unda qandaydir jonli ibtido hukmron: uni aql- idrok deymizmi, tabiat, bashorat yoki taqdir deymizmi- ahamiyati yo'q. Muhimi shuki, uning yozi'i albatta amalga oshadi.

Faylasuf fazilatlarining ma'nosini taqdirdan rozilikda, uning zarbalariga insoniy qadr- qimmatini yo'qotmay, mardona va chidam bilan dosh berishda ko'radi. U o'limni sovuq, tund lekin ozodlikning kafolati sifatida talqin etadi. Ozodlikni o'z- o'zini o'ldirishda ko'rish, shubhasiz, u yashagan davrning `oyatda fojialiligi bilan bo'liq. Seneka qul bilan ozod kishining ma'naviy tengligini ta'kidlaydi: "Ular qullarmi? Yo'q odamlar. Ular qullarmi? Yo'q ular uyingdagi qo'shnilar. Ular qullarmi? Yo'q sening itoatkor do'stlaring. Ular qullarmi? Yo'q ular sening qullikdagi birodarlaring, negaki, sen ham, ular ham taqdirning qullarisiz". Albatta, bu o'rinda Seneka ijtimoiy tenglikni emas, balki qul bilan quldorning ahloqiy tengligini nazarda tutmoqda. Faylasufning aytishicha, ruh ozodligi- shahs uchun o'z- o'zini qadrlash va `urur- iftihar manbai. Kimki botiniy ozodlikka erishgan ekan, u taqdir ko'rgiliklariga bo'ysunmaydi, qismat zarbalarini mardona kutib olishga tayyor turadi.

Yana bir Qadimgi Rim ahloqshunosi ozod qilingan qul Epiktetdir (50-138 yillar atrofida). Uning ahloqiy qoidalari quyidagicha: taqdir muqarrar; aql- idrok ahloqning yagona va ishonchli mezon; tashqi dunyo ma'budalari irodasiga qat'iy bo'liq, ichki dunyo insonning hukmi ostida; haqiqiy donishmandning erki shundaki, u o'ziga bo'liq bo'lgan narsalarning o'ziga bo'liq bo'lmagan narsalar bilan chalkashtirib yubormaydi; hayotning maqsadi va ma'nosi shahsiy ichki erkinlikni anglash va uni qo'lga kiritish; unga elitadigan yo'l bitta- ma'budalar irodasiga so'zsiz itoatkorlik, ehtiyojida mo'tadillik, beparvolik, sovuqqon aql bilan ish ko'rish.

Epiktetning fikriga ko'ra, baht, haqiqiy saodat- fazilatida fazilat esa butunlay insonning ijodidir, zero uni inson shakllantiradi. Faylasuf o'zing yoqtirmaydigan sharoitni o'zgalarga ravo ko'rma, agar qul bo'lishni istamasang, atrofingdagi qullikka yo'l berma, degan fikrni ilgari suradi.

Shunday qilib, Qadimgi Rim ahloqshunoslari ham inson hatti- harakatlari muammosini o'rta tashlaydi va insonning olamdagi o'rni hamda hayotning maqsadini belgilashga intiladilar. Bunday intilish, ayni paytda, butun Qadimgi dunyo mumtoz ahloqshunolariga hosdir. Hullas, Qadimgi dunyoning mumtoz ahloqshunoslari oddiy ahloq- odob qoidalari, pand- o'g'itlari va hikmatlardan tortib, to ahloqshunoslik nazariyasi tizimigacha yaratdilar. Bu meros hanuzgacha o'z ta'siri kuchini yo'qotgani yo'q. Hanuzgacha jahon ahloqshunosligi ko'p hollarda o'sha tushunchalar va tamoyillarga yangicha yondashuv asosida taraqqiy etib kelmoqda.

### **Tayan tushunchalar**

Ezgulik, Yovuzlik, fazilat, Illat, ruh, Ihtiyor erkinligi , Iztirob, adolat, Donishmandlik, Do'stlik.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. "Avesto"ning ahloqiy ahamiyati nimalarda ko'rinadi?
2. Arastugacha bo'lgan Qadimgi Yunon ahloqshunosligini o'ziga hosligi nimalarda aks etgan?
3. Arastu ahloqiy ta'limotining mumtozlik mohiyati nimada?
4. Qadimgi Rim mutafakkirlarining ahloqiy qarashlarida qanday muhim muammolar ko'tarilgan?

## **3- Mavzu: O'rta Osiyo mutafakkirlarining ahloqiy ta'limotlari**

Reja:

1. O'rta Osiyo - Uy`onish davrida ilm- fan, madaniyat markazi sifatida
2. O'rta Osiyo mutafakkirlarining ahloqiy ta'limotlari
3. O'rta Osiyo donishmandlari asarlarining ma'naviy barkamol inson tarbiyasidagi ahamiyati.

O'rta Osiyo halqlari tarihi, madaniyati, falsafasi va qadriyatlarining ildizlari o'tmishiga tutashadi. Bu borada akademik N.I. Konrad, O'rta Osiyo nafaqat qadimgi dunyoning, balki bir butun qadimgi dunyo halqlarining madaniy markazi bo'lib hisoblanadi. Insoniyat tarixida O'rta Osiyo madaniyati tarixining ta'siri beqiyosdir, deb baho bergan edi.

Haqiqatdan ham halqimiz o'zligini anglashi uchun o'z o'tmishi, merosi, madaniyati, qadriyatlari va tarixini yahshi o'rganishi kerak.

Mavjud tarihiy manbalar O'rta Osiyoda qadimdan madaniyat yahshi rivojlanganligi va bu erda yashaydigan halqlarning yuksak taraqqiyot bosqichida turganligidan guvohlik beradi. O'rta Osiyo halqlari madaniyatining rivojlanishi tarihi bu mamlakatlarda sinfiy jamiyatning shakllanishi ~arb va Sharq halqlari madaniyatning o'zaro ta'siri jarayoni bilan bo'liqdir.

IX-XI asrlarda O'rta Osiyoda madaniyat, ilm- fan va falsafaning yuksak rivojlanishi uchun qulay tarihiy va ijtimoiy- siyosiy shart- sharoit vujudga keldi. IX-XI asrlarda O'rta Osiyoda madaniyatining gullab- yashnaganligining asosiy sababi o'sha davr madaniyatida inson tomonidan jamiyat hayoti va tabiatning sir- asrorlarini o'rganishda uning erki va aqli, tafakkurining madh etilishiga alohida e'tibor berganligi bilan izohlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida arab istilosidan keyingi islom ta'sirida dunyoga kelgan va eng rivojlangan madaniyat o'zbek halqi madaniyati hisoblanadi.

Sharqning ma'naviy madaniyati islom bilan bo'liq edi. Shu sababli O'rta Osiyo mutafakkirlarining falsafiy qarashlarida, shuningdek davlatga, ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabatlarida, ahloqiy va estetik qarashlarida islomning ta'siri kuchli edi. Shunga qaramay, etik qarashlarda inson bu dunyoning eng oliy zoti deb qaraladi. O'rta Osiyo mutafakkirlari olam va narsalarning qadr-

qimmatini insoniylik bilan belgiladilar. Insonparvarlik `oyalari etnik sistemalarda yangi va yuqori bosqichga ko'tarildi.

O'rta asr Sharqining buyuk mutafakkiri, qomusiy olim Abu Nasr Muhammad Tarhan Forobiy (873-950) dir. O' o'z dunyoqarashida davrning il'or `oyalarini ifodalaydi. O'rta Osiyo va Sharq mamlakatlarida il'or ijtimoiy-falsafiy fikrning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Forobiy "Davlat haqida risola", "Ideal shahar aholisining fikrlari", "Baht-saodatga erishuv haqida", "Aql ma'nolari haqida risola", "Grajdanlik siyosati" va boshqa 200 dan ortiq asarlarida o'z davri uchun izchil hisoblangan ijtimoiy hayotning ko'p masalalariga oid ta'limot yaratdi.

Forobiy o'zining "Ideal shahar aholisining qarashlari" asarida o'z davri uchun eng il'or bo'lgan ma'rifatparvarlik, insonparvarlik `oyalarini ilgari suradi. Mutafakkirning talqinicha falsafa, jamiyat haqida fanga nazariy asos berishi hamda odamlarning va jamiyatning baht- saodatga erishuviga ko'maklashishi zarur. Biroq nazariy fanlarni o'rganish, aql yordamida bilishga falsafa vositasida bo'lganidek, din yordamida ham erishiladi: har ikkalasi baht - saodatga elituvchi oliy printsipl- ibtido (boshlan'ich) larni bilishga olib keladi. Faqat falsafa bu maqsadga dalillash metodi asosida qo'lga kiritilgan bilim bilan, din esa haqiqat zuhur etuvchi suratli (obrazli) ramziy tasavvurlardan foydalanilgan holda e'tiqod qo'yish metodi bilan erishadi.

Ideal jamiyat aholisini tarbiyalaydigan bilimlar to'rt hil: "Bu nazariy fazilat bo'lib, u tufayli mavjud narsalar ishonchli dalillar vositasida aql yordamida bilinadi. So'ngra, bu- e'tiqod qo'yish yo'li bilan erishiluvchi mohiyatni angalsh; bundan keyingisi- bu aql yordamida anglashiluvchi mohiyatining suratlarini o'zida saqlovchi, e'tiqod yo'li bilan tasdiqlangan bilim; so'ngra bu uch (bilim hillari) u yoki halq uchun ajralib chiqqan bilimlar.

Binobarin, halqlarning soniga ko'ra, ajralgan bu bilimlarning har biri hamma narsani qamrab oladi, pirovardida mazkur halq kamol topadi va baht-saodatga erishadi".

Demak, fazilatli shaharda har bir tabaqa, har bir halq o'zi erishgan bilimlar bosqichiga muvofiq, kamolot va baht- saodatga erishadi. Faylasuf-hukmdorning vazifasi u yoki bu insonni baht- saodatga elitadigan bilim bosqichini belgilash, ularni tarbiyalashning zarur vositalarini topish, ishontirish metodi bilan halqni tarbiyalash uchun qo'llaniladigan narsalarni bilishdan iborat.

Forobiy aql va ahloqning o'zaro aloqadorligiga amal qilingan holda inson va jamiyatni ta'rifladi.

"Har bir inson,- deydi Forobiy yashash va kamolatga erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, uni bir o'zi qo'lga kiritmaydi. Shu sababli odam yashash uchun zarur bo'lgan narsalarni bir-biriga etkazib beruvchi va insonlarning birlashuvi orqaligina inson etuklikka erishishi mumkin".



Mutafakkirning ta'kidlashicha, donolik haqiqiy bilim- ilohiy qudratni bilishga olib boradi. Donolik- bu haqiqiy baht- saodat haqida bilim beradigan hislat, mulohazalilik esa bu baht- saodatga erishish uchun amalga oshirilishi zarur bo'lgan harakatlar haqida bilim beruvchi hususiyatdir. Unisi ham, bunisi ham birgalikda insonning kamol topishiga yordam beradi.

Odamlarni baht- - soadatga elitish yo'lida ularni o'qitish va tarbiyalash lozim, ular so'lom fikrlaydigan bo'lishi kerak. So'lom fikrlash tufayli ular barcha narsalarni bilishga erishadilar.

Forobiy tengsizlikni qoraladi, insonlarni o'zaro hamkorlikka chaqirdi, dunyoda yagona bir butun inson jamoasi tuzishni orzu qildi.

"Davlatning asosiy vazifasi,- deydi Forobiy, insonlarini baht- saodatga olib borishdir, bu esa ilm va yahshi ahloq yordamida qo'lga kiritiladi. Davlat boshli'i adolatli, insonlarga `amho'r, ilm- fanga e'tibor beruvchi aqlli, dono shahs bo'lmo'i lozim, shunda osoyishtalik, farovonlik tantana qiladi, natijada zulm, johillik yo'q bo'lib, er yuzida adolat `alaba qozonishiga ishonar edi. O'rta asr davrida, o'zaro to'htovsiz urushlar davom etgan bir davrda bunday il'or fikrlar bilan chiqish katta ahamiyatga ega edi.

Fazilatli shaharning barcha a'zolari o'zaro mehr- muhabbat asosida birlashadilar va munosabatda bo'ladilar. Jamiyatning yahlitligini saqlash va uning jipsligi adolat va undan kelib chiqadigan harakatlar bilan oshiriladi. Adolat esa fazilatli shahar aholisining ezgulikka birgalikda dahldor bo'lishidan vujudga keluvchi mehr- oqibatdan hosil bo'ladi. Farobiyning ushbu fikrlari bugungi kunda o'z mustaqilligini qo'lga kiritib kelajak sari dadil rivojlanib borayotgan respublikamiz uchun ham dolzarb ahamiyatga egadir. Jumladan, respublikamiz prezidenti I.Karimov "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" nomli risolasida ta'kidlaganidek, respublikamizning taraqqiyoti halqimizning jipslashib, bir- birimizga mehrli, oqibatli bo'lishimizga bo'liq. Shu narsa bizga umid, ishonch va kuch ba'ishlamoqda, tinch- totuv hayotga asos bo'lmoqda (Qarang: I. Karimov. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent, "O'zbekiston", 1992 8- bet).

Forobiyning ahloqiy qarashlarida aql kategoriyasi bilan birga baht va fazilatlar kategoriyasi ham muhim o'rin tutadi. Bahtni qo'lga kiritish uchun inson faol va tashabbuskor bo'lishi kerak.

Shuningdek, ozodlik, tanglik, adolat haqida ham ko'pgina fikrlarni ilgari suradi. Bularning hammasi bilim natijasida amalga oshiriladi, deb ta'kidlaydi.

Forobiy insonning kamolotga erishuvida ta'lim- tarbiya nihoyatda zarurligini ta'kidlaydi.

Forobiy insonning ma'naviy hayotida onglilikka va ahloqiylikka e'tibor beradi. Demak, ta'lim- tarbiya insonni aqliy va ahloqiy jihatdan mukammal kishi bo'lib etishiga qaratilmo'i lozim. Uning ta'limoti, "bilim, ma'rifat, yahshi ahloq" bilan bezatilmo'i lozim. O'tkir aql va go'zal hulq ma'naviy etuk inson bo'lib

etishishning asosiy shartidir. "Darahtning etukligi uning merosi bilan bo'lganidek, insonning barcha hislatlari ham ahloqi bilan yakunlanadi".

Forobiy ta'limotida aqliy tarbiya bilan ahloqiy tarbiya masalasi uzviy bo'lanib ketgan. Ahloqiy bo'lish aqlilikning muhim hislati, fazilatidir. Forobiyning ahloqiy tarbiya haqida ta'limoti "Ideal shahar aholisining fikrlari", "Baht- saodatga erishuvi haqida", "Aristotelning "Etika" asariga sharhlar" kabi risolalarida bayon etilgan. Inson yuksak kamolatga erishuv yo'lida harakat qilganidek, aqliy bilishga ham harakat qilsa, shubhasiz o'zi intilayotgan saodatga erishadi, deb ta'kidlash bilan mavhum inson timsolini yaratib uni tarbiya sohasida namuna qilib ko'rsatadi. Bu inson jismonan barkamol barcha masalalarni tez tushuna oladigan, hotirasi kuchli, fikri ravon, bilimga, o'qishga muhabbat qo'ygan, haqiqatgo'y, vijdonli, adolatli kabi fazilatlari bilan boshqalardan ajralib turadi.

Abu Rayhon Muhammad Ibn- Ahmad al- Beruniy (973-1048) qadimiy Horazm shahri Qiyotda tu'lgan. Beruniy buyuk qomusiy olim va faylasuf bo'lib, fanning turli sohalari bo'yicha 150 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Jumladan, "Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Mineralogiya", "Geodeziya", "Dorivor o'simliklar haqida kitob", "Ma'sud qonuni", "Astronomiya va yulduzlar to'risida", "Er harakat qiladimi, yo'qmi?" va boshqa asarlarida o'zining tabiiy- ilmiy, ijtimoiy, falsafiy va ahloqiy qarashlarini bayon etgan.

Beruniyning etikasida ahloqning mohiyati kishilarning turmush tarzi bilan chambarchas bo'lgan. Boshqacha aytganda, Beruniy ahloqning mazmunini ijtimoiy hodisalar, kishilarning moddiy ehtiyoj va manfaatlari bilan bo'lgan holda tushuntirishga harakat qiladi.

Beruniy "Mineralogiya" asarining muqaddimasida inson va uning hol-ahvoli, dunyodagi burchi, olijanobligi, shuningdek, iqtisod, ahloq va odob to'risida qimmatli fikrlar bildiradi.

Beruniy inson характери haqida gapirib, uni inson tabiatida mavjud qarama-qarshilik bilan tushuntirmoqchi bo'ldi. Inson tabiatdagi ziddiyatli holat to'risida: "Odamlar turmush- hayotda har hil hollarda bo'ladi, Bularning bir turi bilan maqtaladilar, boshqasi bilan qoralanadilar", deb ko'rsatgan edi. Beruniy yuksak insoniy fazilatlar haqida o'z mulohazalarini bayon qilib aytadi: "Maqtovlarning qutbi muruvvat, muruvvatning o'qi- asosi tozalik va pokizalikdir".

Beruniy kishilardagi barcha salbiy fazilatlarni qoralab, yahshilik va oliyjanoblik kabi hislat hususiyatlarini maqtagan.

Uningcha, himmat qilishiga intilish ham huddi muruvvatga bo'lgan intilishga o'hshaydi. Hulq atvorni, uni insonning ahloq kitoblarida aytilgan yo'llar vositasida davolab, tarbiyalab go'zal pokiza tutib yomon hollarga tushmasligi mumkin. uningcha, yahshilikka intilish olijanoblikni o'stiradi, birinchi navbatda o'ziga, keyin esa boshqalarga yahshilik istashi lozim. Inson o'z

ichki dunyosini tarbiyalab borib, asta- sekin kamolatga erishadi va salbiy jihatlardan holi bo'lib boradi.

Beruniy mamlakatning ravnaqi, insonning bahti bilim va ma'rifatda deb bildi. U insonning nimaga da'vat etganligi, uning ezguligini va olijanob hulq- atvorini, ahloqiy fazilatlarini madh etish bilan insondagi barcha salbiy illatlarni qoraladi.

Beruniyning ahloqiy qarashlarida rostgo'ylik va adolat bir qimmatga ega bo'lgan ahloqiy sifatlardir. Ijtimoiy hayotdagi adolat haqida Beruniyning quyidagi so'zlarida uning fikri yaqqol ifodalangan: "Ma'ribdagi shaharlarning birida zodagonlar va er egalari shaharni navbat bilan uch oy mobaynida boshqarar ekanlar. Kimga navbat kelsa o'sha uch oy davomida hokimlik vazifasini bajarar ekan. Muddat tugagach, o'z ihtiyori bilan hokimlikdan voz kechib o'ir vazifadan qutulgani uchun el- yurtga hayr- sadaqa ulashar ekan. Bunga hamma rioya etishi shart bo'lgan, agar o'zaro kelishilganlik bo'lmasa tartib ham, adolat ham bo'lmaydi (Qarang: Beruniy va ijtimoiy fanlar. T.Fan, 1973, 18 bet).

Bundan ma'lum bo'ladiki, Beruniy mamlakatni demokratik tarzda boshqarishni antik davrdagi Afina va o'rta asrlardagi Italiya shimolidagi shaharlarning davlat tuzilishi sistemasini nazarda tutgan holda tushunadi va talqin qiladi.

Insoniyat madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan o'rta asr Sharqning mashhur mutafakkirlaridan biri failasuf, shifokor, shoiri va yozuvchi Abu Ali Ibn Sino (980-1037) alohida o'rinni egalladi. Ibn Sino O'rta Osiyo halqlari uchun iqtisodiy va siyosiy jihatdan o'ir bir davrda ijod etdi.

Ibn Sino 200 dan ortiq ilmiy asarlar muallifidir. Eron olimi Nafisning ta'kidlashicha Ibn Sinoning 182 ta asari falsafa masalalariga ba'ishlangan. Shuning uchun uni Ovrupada "Falsafa hokimi" ("Shayhur rais") deb yuritishgan. Ibn Sinoning asosiy falsafiy asarlari "Kitob va shifo", "Donishnoma", "Najot", "Kitob al ishorat" va hokazolardir.

Ibn Sinoning eng qimmatli asari "Tib qonuni"dir Bu kitob bugungi kunda ham o'zining amaliy ahamiyatini yo'qotgan emas. Ibn Sino ijodida ahloqiy masalalar katta o'rinni egallaydi. U ahloq masalasiga "Ahloq fani", "Oila qurilishi" va boshqa ko'p asarlarni ba'ishladi.

Ibn Sinoning ahloqiy ta'limoti uning ijtimoiy- siyosiy va falsafiy `oyalaridan kelib chiqadi. "Ahloq fani vositasida,- deb yozgan edi Ibn Sino,- inson o'z hatti-harakatini o'rganib, kelajakda bahtli va farovon yashashga harakat qiladi".

Shuni ta'kidlash kerakki, Ibn Sino etikasi yahshilikni yomonlikdan ajratadi va kishining bahtli bo'lishiga sharoit yaratadi. Ibn Sino ahloq kategoriyasiga yahshilik va yomonlik, lazzat, donolik, sahiylik, sevgi- muhabbat, kamtarlik, azob-uqubatlarni kiritdi.

U yahshilik va yomonlik haqida gapirib shunday yozadi: "Nimaki mavjud bo'lsa,- o'z tabiatiga ko'ra kamolatga intiladi. Mana shu kamolatga intilish, o'z

mohiyatiga ko'ra yahshilikdir. Buyumlar hos bo'lgan nuqsonlar yomonlikdir. Yahshilik faollikka, yomonlik tur'inlikka olib keladi" (Qarang: M. Baratov. Ibn Sino etikasi. T. 1969. 15 bet).

Insoniy adolat- muhim ahloqiy hislatdir va inson bezagidir. Adolat, uningcha ruhiy lazzatning bosh o'lchovidir. U odamning uch istagi- toqat, jasurlik, donolik bilan paydo bo'ladi. Agar inson shu fazilatlarga ega bo'lsa, yaramas ishlardan o'zini saqlay oladi, yahshilikni o'zida mustahkamlab, haqiqiy ruhiy lazzatga erishadi. Demak adolat yahshilik bilan yomonlikning mezoni. Bu o'rinda u ruhiy lazzatni hissiy lazzatdan ustun qo'yadi.

Ibn Sino ijobiy ahloqiy kategoriyalarga sahiylik, chidamlilik, kamtarlik,, sevgi- muhabbat, mu'tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi.

Ibn Sino insonning yahshi ahloqiy fazilatlariga kishilarning yomon hulq va hatti- harakatlarini qarama- qarshi qo'yadi. U insonning salbiy nuqsonlariga aldash, nafrat, zaiflik, rashk, adovat, o'ch olish, sergaplik, bo'hon, be'manilik, irodasizlik va boshqa yomon hislatlarni kiritadi. Eng katta nuqson ilmga qarama- qarshi bo'lgan johillikdir deydi.

Ibn Sino fikricha, ahloqiy fazilatlarining takomillashuvida, yahshi do'st katta rol o'ynaydi. "Yahshi do'st-deydi u, kishining hamma yahshi va yomon sifatlarini aks etuvchi oynadir. Yahshi do'st o'z vaqtida butun nuqsonlarni ko'rsatadi, maslahati va hatti- harakati bilan bu kamchiliklarni yo'qotishga yordam qiladi".

Ibn Sino etikasining muhim tomonlaridan biri bolalarni ahloqiy tarbiyalash masalasidir. U, tarbiya kishilarning ahloqiy fazilatlarining rivojlanishida muhim rol o'ynashini fahmladi va shuning uchun ham bu masalaga ko'p e'tibor berdi.

Ibn Sino davlat va sinflar mohiyatini noto'ri tushinishi natijasida, ahloqiy fazilatlar tushunchalarning nisbiyligini, ahloqiy kategoriyalarning tarihiy ekanligini tushunmadi, ularni inson ongidan keltirib chiqarishga harakat qildi va ayrim hollarda u odamlarni bu dunyo lazzatlaridan yuz o'girishga, narigi dunyo lazzatlaridan umidvor bo'lishga chaqirdi.

Alisher Navoiy buyuk o'zbek mutafakkiri (1441-1501), uning ijodiy faoliyati O'rta Osiyoning XV asrdagi murakkab, tarihiy sharoiti bilan bo'lgan.

Navoiy fanning turli sohasiga doir 40 dan ortiq asarlar yozdi. Jumladan "Chor devon", "Hamsa", "Maqbul ul- qulub", "Muhokamatul lu'atayin" kabi asarlarida Sharqning il'or falsafiy va ijtimoiy an'analarini davom ettirdi. Navoiyning falsafiy qarashlari panateizmga asoslanadi. Panateizm o'rta asr sharoitida, ya'ni islom hukmron mafkura bo'lib turgan davrda il'or fikrlarni bayon etishning eng oson shakli, vositasi bo'lib hizmat qilardi.

Sharqda bu hil panateistik oqim ko'pincha tasavvuf niqobi ostida namoyon bo'lar edi. (Qarang: Osiyo halqlari hurfikrliligi tarixidan. T., Fan, 1990, 136 bet). Navoiy "Hayratul abror" dostonida o'zining falsafiy, ijtimoiy- siyosiy va ahloqiy qarashlarini bayon etdi. Navoiy ijodida o'rta asr Sharqida shakllangan

insonparvar fikrlar oliy darajaga ko'tarildi. Panateizm va ratsionalizimga asoslangan holda insonning ijtimoiy taraqqiyotida katta o'rin tutishini e'tirof etib inson tabiat bilan bo'liqdir. Shuning uchun u tabiatni ardoqlashi lozimdir, deb ta'kidladi.

Komil inson ta'limotining muayyan ta'siri Alisher Navoiyning falsafiy va ahloqiy qarashlarida ham o'z aksini topgan. Uning ahloqiy ideali Suqrot, Aflotun, Arastu, Iskandar Zulqarnayn, Farhod va Shirin singari ijobiy qahramonlarning obrazlarida badiiy ifodalanadi. Shoir dostonlarida ular tarixiy shahslar sifatida talqin etilmaydi., balki uning ahloqiy dunyoqarashiga monand badiiy obrazlardir. Komil insonning real badiiy obrazlari sifatida Navoiy Ganjaviy, Bohovuddin Naqshband, Abdurahmon Jomiylarni tilga oladi. Shoir ta'rifiga ko'ra, bu shahslarda yuksak ilm (ma'rifat) va san'atkorlik, ahloqiy poklik va ma'naviy kamolot bilan uzviy ravishda bo'langandir.

Farhod komil insonga hos barcha sifatlarni o'zida mujjassamlashtiradi: Farhod- rassom, mohir usta, bilimdon, dono mutafakkir, ayni vaqtda u dovyurak jangchi hamdir. Bu obrazda Navoiy insonparvarlikning o'ziga hos hususiyatini shunday ifodalaydi. Bu insoniylik insonga nisbatan mavhum muhabbatda, insoniy his- tuy'ulardangina namoyon bo'lmasdan, balki insonga yondoshishning amaliy printsiplari sifatida yuzaga chiqadi.

Navoiy halq baht- saodati uchun kurashdi, o'zaro maqsadsiz urushlarni qoraladi. Shu bilan birga mamlakatda adolat o'rnatish uchun ilm- fan, ma'rifat ravnaqi uchun halqlar do'stligini mustahkamlash uchun, odamiylik, haqqoniylik uchun kurashdi. Insoniy fazilatlarini kuyladi. Shoir o'z ahloqiy va ijtimoiy ideallarni yuzaga chiqarishning asosiy vositalarini ilm- ma'rifat va ahloqiy tarbiya deb biladi.

Buyuk shoir o'z asarlarida, hususan "Hamsa" dostonlarida ideal hayot dunyosini - odillik, muhabbat va yahshilik dunyosini yaratadi. Bu dunyoda yahshilik hamon yovuz kuchlar ustidan `alaba qiladi. Chunonchi, uning ahloqiy ideali kelajakka qaratilgan bo'lib, chuqur optimizm bilan su'orilgandir. Mutafakkir shoirning tafakkuri kuchi va badiiy fantaziyasi bilan yaratilgan ijobiy obrazlar, yuksak `oyalar va ahloqiy pirintsiplar dunyosi bizning davrimizda ham o'zining ahamiyatini saqlab qolgandir.

O'rta Osiyo halqlarining il'or ijtimoiy- falsafiy ahloqiy qarashlari keyingi asrlarda Dehlaviy, Mirza Bedil, Boborahim Mashrab, Ahmad Donish, Furqat, Berdak, Mahtumquli, Muqumiy, anbar Otin, Nozimahonim, Abdulla Qodiniy, Cho'lpon va boshqa mutafakkir va shoirlar ijodida rivojlantirildi.

Shunday qilib O'rta Osiyo mutafakkirlarning falsafiy va ahloqiy ta'limotlari dunyo madaniy taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida, butun Osiyo halqlarida mavjud bo'lgan madaniyat va an'analari bilan bo'liq holda rivojlanib kelgan bo'lib, ahloqiy qadriyatlar sohasidagi boy merosimizni bugungi kunda har

tomonlama o'rganib, uni halqimizning umumiy ma'naviy madaniyatini oshirishga, milliy ongini yuksaltirishga hizmat qildirmo`imiz kerak.

#### **Tayanch tushunchalar**

1. E'tiqod, tasavvuf, Hamsa, Baytul hikmat, panateizm, mutaffakir, hulq- atvor.

#### **Takrorlash uchun savollar**

1. Sharq Uy`onish davri qaysi asrlarga to`ri keladi?
2. Ikkinchi muallim nomini olgan olim kim?
3. Minerologiya asari muallifini ayting?
4. Ibn Sino ahloqiy tarbiya masalasiga oid qanday asarlar yozgan?

### **4- Mavzu: Ahloqning mezoniy tushunchalari**

Reja:

1. Ahloqning maydonga kelishi haqida.
2. Ahloqning insonparvarlik, vatanparvarlik tamoyillari.
3. Ahloqning mezoniy tushunchalari mohiyati.

1. Ahloq, ahloqiy munosabatlar insonga hos fazilat bo'lib, u er yuzidagi insonlar paydo bo'lgan davrga borib taqaladi. Er va hotin, ota- ona va farzand o'rtasidagi, yaqin qarindoshlar, qabiladoshlar o'rtasida samimiy o'zaro hurmat, bir- biriga mehribonlik, ahloqning ilk kurtaklari hisoblanadi.

Quldorlik jamiyatida Qadimgi Hitoy, Hindiston, Yunon, Turon, Rim mutafakkirlarining asarlarida ahloqning diniy, badiiy, ilmiy asoslari yaratilgan. Zardusht, Arastu, Aflotun, Budda, Konfutsiy asarlarida ahloqiy ta'limotlar ifodalangan.

Gumanizm (lot. Insoniylik ma'nosini bildirib insonparvarlik deganidir) insonni shahs sifatida qadr- qimmatini, uning ozodlik, bahtga erishish huquqini tan oluvchi, inson o'z qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlanishiga imkoniyat yaratuvchi, kishilar o'rtasidagi munosabatlarda tenglik, adolatli insoniy normalarning qaror topishini, ijtimoiy hayotda inson uchun qulay shart- sharoit yaratib berish haqida `amho'rlik qilishni, shuningdek insonni har tomonlama kamol toptirishni aks ettiruvchi qarashlarning majmuasidir.

Kishilarning hayotiy munosabatlari odamlarning o'zaro- hurmat qilishga, yahshilikka, sabr- toqatligiga, qaramligida namoyon bo'lgan. Ijtimoiy munosabatlarning qondoshlik shaklidan hududiy shaklga o'ta boshlashi bilan qabilaviy tor tafakkur qilishdan insonparvarlik `oyasi, ya'ni eramizdan oldingi I asr o'rtalardan boshlab hamma kishilar tengdir degan `oya shakllana boshlagan.

Masalan, (er. Oldingi IY asr) qadimgi Hindiston "Mahabharati"da ta'kidlanicha, boshqalarning hatti- harakatini o'zingga munosib ko'rmasang, u senga yoqmasa, uni boshqalarga ham ravo ko'rmagil.

Hayot donishmandligining asosiy qoidasi haqidagi savolga Konfutsiy shunday javob beradi: "O'zingga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rma". Shulardan keyinchalik ahloqning "oltin qoidasi" shakllangan, asta-

sekin u madaniylashgan halqlarning ijtimoiy ongidan mustahkam o'rin oldi. Har bir kishi insonparvarlik nuqtai nazaridan ozod, bahtli bo'lishi, o'z qadr-qimmatiga egalik qilish, bu qoidalarga asosan boshqalarni hurmat qilish, unga ishonish va `amho'rlik qilish huquqiga ega.

Halqning doim o'sib boruvchi moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'la qondira oladigan jamiyatni haqiqiy insonparvar jamiyat deyish mumkin.

Insonparvarlikning o'ziga hos xususiyatini konkret- tarihiy harakteriga ega bo'lishidir. Insonparvarlikning ahloqiy normalari mazmuni va mohiyatiga ko'ra umuminsoniydir. Umuminsoniy ahloqiy printsip sifatida u tarihan rivojlanib boradi, halq manfaatlarini ifodalani, chuqur ma'naviy mazmunni kasb etaveradi.

Vatan ko'p qirrali tushuncha, ya'ni ma'lum halq yashaydigan hudud ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy tuzum, ya'ni kishi mansub bo'lgan jamiyatning moddiy va ma'naviy hayot sharoitlari majmuasini o'z ichiga oladi.

Vatanparvarlik (grek vatan ma'nosini bildiradi) vatanga mehr- muhabbat, unga sodiq bo'lish, uning o'tmishi va hoziri uchun fahrlanish, uning manfaatlari yo'lida hizmat qilishga tayyor turish demakdir. Vatanparvarlik murakkab, tarihan o'zgaruvchan ijtimoiy- ahloqiy hodisadir.

Ona erga, ona tilga, urf- odat va an'analarga tabiatan bo'liqlik hislari shakli sifatida vatanparvarlikning dastlabki tarihiy belgilari ibtidoiy jamoa tuzumi davrida shakllana boshlangan. Uru` a'zolari o'rtasidagi qon- qardoshlik vataparvarlikning negizi bo'lib hizmat qilgan.

Halqlarning dehqonchilik bilan shu'ullana boshlanishi tufayli ularning onglarida ona erga muhabbat hissi muhim ahamiyat kasb eta boshlagan. Shu davrdan bolab vatanparvarlik hisi chuqurlashib, ijtimoiy hayotga kira boshlagan va uning geografiyasi kengayib boradi.

Antik davr mutaffakirlari vatanparvarlik muammosini ahloqiy majburiyatlarni eng yuqori o'ringa ko'targanlar. Masalan, Aflotun "Vatan ota va onadan ham qadrlidir" degan edi.

Vatanparvarlik baynalmillalilik bilan uzviy bo'liqdir. Vatanparvarlik muayyan siyosiy, ijtimoiy va madaniy muhitda yashovchi kishilarni o'zaro yordam, boshqa halqlar bilan hamkorlik qilishni nazarda tutgan holda birlashtiradi. Shu bilan bir qatorda u o'z mamlakati taraqqiyoti, gullab-yashnashiga va kamchiliklariga ongli munosabatda bo'lishini talab etadi.

O'zbekiston halqining hozirgi kundagi asosiy vazifasi insonparvar, demokratik, huquqiy davlat barpo etishdir. Bunday sharoitda har bir fuqaroning o'z ona Vataniga muhabbati, unga sodiqligi, o'z faoliyatini uning ravnaq topishiga ba'ishlashi barcha yutuqlarimiz, muvafaaqiyatlarimiz garovidir.

Yahshilik va yomonlik ahloqiy ongning eng umumiy mezoniy tushunchalariga kiradi. Bu o'rinda yahshilikni baht- saodati, ezgulikdan farqlay bilish lozim, chunki yahshilik insoniyat baht- saodati ezgu niyatlarining ahloqiy

tomonini ifoda etadi. Chunki voqelik har doim kishilar uchun baht- saodat hodisasi sifatida, kishilarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish tushunchasida namoyon bo'ladi. Yahshilik ijtimoiy hodisalarni, shuningdek ahloqiy hatti- harakat, hulq- atvor kishilar nuqtai nazaridan ijobiy baholari majmuini anglatadi.

Yomonlik tushunchasida kishilarning maqsadiga, ular e'zozlaydigan narsalarga zid keladigan, bahtga erishishga, odamlar orasidagi munosabatlarda ijobiy o'zgarishlarning qaror topishiga hamda insonning kamol topishiga to'sqinlik qiladigan hamma narsalar haqidagi tasavvurlar ifodalanadi.

O'tmishda turli falsafiy yo'nalishdagi ta'limotlarda yahshilik va yomonlik, ezgulik tushunchasi turlicha talqin qilingan.

Masalan, ba'zilar yahshilik inson hatti karakterlariga ahloqiy baho beradi, yomonlik esa ezgulikka zid tushuncha sifatida, Aflotun talqincha yahshilik o'zgarmas abadiy "Himmat", chunki inson tabiatni o'zgarmas deb, yana boshqalari yahshilik bu ehtiros va orzu- havasni qondiruvchi narsa, deb talqin qildilar. Bu kategoriya u yoki bu ma'noda talqin etilmasin, ular bu kategoriya kishilarning amaliy faoliyatlari, iqtisodiy zaruriyat bilan, ya'ni ob'ektiv voqelik bilan bo'liqligini ko'ra olmadilar. Boshqacha aytganda, ular bu kategoriya shahsning sub'ektiv olami mahsulidir, degan o'yanini ilgari surdilar.

Natijada yahshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlar halqdan halqqa, asrdan asrga o'tib shu qadar o'zgarib ketganki, ko'pincha ular bir- biriga tomomila zid kelib qolgan.

Bu hil qarashlar O'rta Osiyo mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Hayyom, Nizomiy, Alisher Navoiy va boshqalar qarashlarida ham yaqqol ko'rinadi. Hususan, Forobiy yahshilik va yomonlik tushunchalarini insonning ma'lum ruhiy holati va tarbiya natijasida vujudga keluvchi muayyan ma'naviy hislatlari bilan bo'langan holda talqin qiladi. Umuman o'tmishda yahshilikning asosi kishilarning amaliy faoliyatida ekanligi, u iqtisodiy zaruriyati bilan bo'liqligina tushuna olmadilar.

Inson hatti- harakatidagi nama'qul, qoralanadigan narsalarning hammasi- yomonlikdir. Yahshilikning ob'ektivligi kishilarning jamiyatga foyda keltirish uchun intilish va bu foyda jamiyat rivojlanishining ob'ektiv manfaatlariga muvofiq kelishidan iboratdir.

SSSRning parchalanib ketishi, uning (SSSR) uchun yomon hodisa hisoblansa, uning tarkibiga kirgan barcha respublikalar uchun esa yahshilik tantanasi hisoblanadi, chunki bu respublikalar o'zining mustaqilligiga, istiqloliga erishdi, o'z er osti va usti boyliklariga o'zi ega bo'ldi. Jumladan, O'zbekiston ham 1991 yil 1 sentyabrda o'z mustaqilligini e'lon qildi, natijada "tilimizni, dinimizni, urf- odatimizni, ma'naviy qadariatlarimizning butkul yo'qolib ketish havfidan saqlab, asrab- avaylab, ularning azaliy mazmunini va qudratini tiklashga o'tdik". (Qarang: "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 1991 yil 1 sentyabr



soni). Er osti va er usti zahiralарimiz, avlod- ajdodlarimiz mehnati bilan yaratilgan iqtisodiy, ilmiy- tehnikaviy, ma'naviy boyliklarimiz va imkoniyatlarimiz yurtimiz farovonligiga xizmat qiladigan bo'ldi.

Agar yaxshilik bilan yomonlik aralashtirib yuborilsa, har qanday ahloq yo'qoladi va har kim o'zicha hatti- harakat qiladi. Yaxshilik va yomonlik o'zaro aloqadar va ayni vaqtda bir- birini inkor etuvchi tushunchalardir.

Yomonlik hamisha ochiq ko'rinavermaydi, ba'zan hatto yaxshilik niqobi ostida ham ro'y beradi. Uni fosh etish va unga qarshi kurashish garchi qiyin bo'lsada, taraqqiyotni ta'minlovchi manba hisoblanadi. Yaxshilik ongsiz ravishda tantana qilmaydi. Yomonlikni yo'qotish ko'p kuchni talab etadi. Faqat yomonlikka qarshi faol kurash olib borishgina kishilarning ahloqiy o'zaro munosabatlarida yanada insonparvarroq po'nalarga ko'tarilishlariga yordam beradi.

Adolat ahloqning normativ tushunchasi bo'lib, u tenglikning, taqdirlashning haqiqiy, zaruriy o'lchovidir. Bu tushunchalar ommaning ijtimoiy- siyosiy ongida muhim ahamiyatga ega. Adolat shahs va ijtimoiy birlikning real iqtisodiy, huquqiy, siyosiy holatini ifodalaydi. Shuning uchun Suqrot adolatni "Qonunga muvofiq hulq" deb baholangan edi. Adolat ijtimoiy munosabatlarning hamma tomonlariga aloqadar bo'lgani uchun kishining qadr- qimmatini bilan uning taqdirlanishi o'rtasidagi, huquq bilan majburiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'z ichiga oladi. bu munosabatlarning buzulishi adolatsizlik deb baholanadi. Demak, adolatlik va adolatsizlik tushunchalarining mazmuni, tarihiy harakterga egadir.

Adolat bilan adolatsizlik tushunchalarini aralashtirib yubormaslik kerak. Adolat tushunchani huquq, vujudga kelishidan ancha oldin shakllangan bo'lsa, huquq sinflar, davlatning kelib chiqishi bilan vujudga kelgan.

Forobiy o'zining ahloqiy qarashlarida ijtimoiy adolat haqida kishilarning hamkorligi haqidagi `oyalarini ilgari surdi. U ideal shahar va uning hokimi haqida gapirar ean, eng avvalo shahar boshli'i "Haqiqatni sevuvchi va haqiqat uchun kurashuvchi, boylikka nafrat bilan qarovchi, o'z tabiati bilan adolat uchun kurashuvchi, adolatsizlik va zulmga nafrat bilan qarovchi, botir, jasur va qo'rqmas hamda qat'iy bo'lishi zarur" deb uqtiradi.

Adolat- ijtimoiy- siyosiy, huquqiy va ahloqiy ahamiyatga ega bo'lgan keng tushunchadir.

Adolatning chuqurlashib, murakkablashib borishi sotsialistik sistemaning emirilishiga olib keldi. Sobiq SSSRda ittifoqqa birlashgan millatlar o'rtasidagi tenglik, qadr- qimmat ham buzila borib, ohir oqibatida unda yashayotgan har bir millat o'z huquqini talab qilib adolatli, demokratik jamiyat qurish istagini bildirdilar va asta- sekin respublikalar o'z mustaqilligini yo'lga kirdi.

Demak, adolat tenglikni ifodalar ekan, sobiq SSSR davlati faoliyatini kuzatadigan bo'lsak, ahloqning adolat printsiplari buzulganligini, O'zbekiston Respublikasiga bo'lgan munosabatda ham ko'rishimiz mumkin, ya'ni er osti va

usti boyliklarimizni tekinga tashib ketilganligi, unda yashayotgan millatlarning kamsitilishi, ya'ni bir millatni ulu` millat, ikkinchisini kichik millat deb qarash tendentsiyasi hukmron bo'lib keldi.

Boshqa millatlar qatorida o'zbek halqi ham 1991 yil 31 avgustida O'zbekiston Respublikasining mustaqilligiga erishdi. Bu halqimizning ko'p asrlik tarixidagi buyuk voqea bo'ldi. Bu voqea yuqoridagi ko'p yillar davomida hukmron bo'lib kelgan tengsizlik, adolatsizlikka chek qo'ydi, adolat tantana qildi.

Mana shu adolatni mustahkamlash borasida halqimiz ajoyib yutuqlarni qo'lga kirtmoqda. Jumladan 1992 yil 2 martda O'zbekiston Respublikamiz Birlashgan Millatlar Tashkilotiga teng huquqli a'zolikka qabul qilindi va hozirgi kunda Jahondagi 130 dan ortiq davlatlar Respublikamiz mustaqilligini tan oldi.

Shunday qilib, adolat qotib qolgan tushuncha emas, u ishlab chiqarish munosabatlarning o'zgarishi bilan, jamiyatning ma'naviy rivojlanishi bilan o'zgarib boradi. U halq ommasining ijtimoiy va shahsiy hayotda insoniy munosabatlarni o'rganish uchun olib boradigan qurashi jarayonida qaror topib beradi.

Inson hatti- harakatida burch ichki ma'naviy zarurat, ya'ni ahloqning muayyan printsiplari, normalariga muvofiq ravishda shahsning jamiyatga, sinfga, kollektivga, kishilarga va o'ziga bo'lgan ahloqiy majburiyatini anglatadi.

Burch o'z tabiatiga ko'ra tarixiy taraqqiyot mahsuli. Burch kishilar hatti-harakatlari uy`nlashuvining o'ziga hos usuli sifatida vujudga keldi va shakllandi, u imperativ- nazorat mehanizmi funktsiyasini bajaradi hamda inson amaldagi ahloqiy qadriyatlar sistemasiga muvofiq jamiyat manfaatini ko'zlagan holda o'z hatti- harakatlarini nazorat qilishga imkon beradi.

Burch ahloqiy ong hodisasi sifatida shahs erkinligi bilan ahloqiy erkinlikning kengayib borishi va shahs ahloqiy ma'suliyatining o'sishi bilan shakllanib boradi.

Umumiy intizomga bo'ysungan mutahassis yangi ish joyiga kelgach, tezda o'z ishiga qiziqish bilan, ijodiy, tashabuskorlik bilan mehnat qila boshlaydi, shu bilan u o'z burchini mamnuniyat bilan bajaradi. Shu vaqtdan boshlab o'z burchini yuksak darajada anglashida qoniqish hosil qiladi, istak bilan majburiyat o'rtasidagi nomuvofiqlik yo'qola boshlaydi, uning o'rnini o'z mehnatiga mehr, shahs qadr- qimmatiga egallaydi.

Ahloqiy burchni anglashda shahsiy va ijtimoiy manfaatlar o'z ifodasini topdi. Ijtimoiy burchni bajarish har bir kishining ehtiyojiga, odatiga aylansa, ijtimoiy majburiyatlarni ongli ravishda amalga oshiradi, shahsning qobiliyatlari va istaklarini yanada yuksaltiradi. Inson yashayotgan ijtimoiy muhit, majburiyatlari doirasi va unga bo'ladigan munosabat, qaysi jamoaga mansubligiga qarab ahloqiy burch turli shaklda, ya'ni vatanparvarlik, grajdanlik, milliy baynamilal, oilaviy do'stlik, o'rtoqlik va hokazolarda namoyon bo'ldi.

Shunday qilib, ahloqiy burch- bu ijtimoiy majburiyat, inson uni ongli va ichki e'tiqodiga ko'ra bajaradi. Shundagina shahs hatti- harakati ahloqiy hisoblanadi. Ahloqiy burch kelajak uchun mas'uliyatnigina emas, balki o'tmish

uchun ham ma'suliyat yuklaydi. Bunday burch hozirgi hayotimiz uchun jonini fido etgan kishilar hotirasi burchidir.

Ahloqiy burch oldidagi ma'suliyat qanchalik yuksak bo'lsa insoniyatning kelajagi uchun kafolat bo'ladi.

Or- nomus tushunchasi insonning jamiyatidagi o'z qimmatini anglashini hamda bu qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishini ifodalaydi. Or- nomus va qadr- qimmat shahs bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi va kishilar hatti- harakatga ta'sir ko'rsatish vositasidir.

Or- nomus shahs bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatni tartibga solib turadi, qadr- qimmat individual o'z- o'zida baho berish sifatida insonning ijtimoiy xizmatlarini inkor etmagan holda uning o'z ahloqiy qimmatini anglash ehtiyoji bilan bo'liqdir.

Shahsning ijtimoiy ahamiyati va jamiyatdagi xizmatlariga baho beradi. Demak or- nomus tushunchasi shahsiy qadr- qimmatni anglashdir. Or- nomus va qadr- qimmat yuksak ahloqiy fazilat shuning uchun hamma intiladi. Buning uchun inson dastlab bu fazilatlar ahamiyatini anglay olgandagina o'z- o'ziga hurmat shakllandi. O'z- o'zini hurmat qilish shahs taqdirini belgilovchi, insonni kamsitilishidan saqlaydigan fazilat shuningdek o'z- o'zini nazorat qilish vositasi hamdir. Or- nomus va shahsiy qadr- qimmat faqat hurmat qilish, fahr, shuhrat hissi sifatidagina emas, balki hulq karakteri sifatida, shahs hulqini jamoatchilik ma'qullashida va shu bilan obro'ni saqlash va qo'llab- quvvatlashidagi ahtiyoj sifatida ham namoyon bo'ladi. Qadr- qimmat haqiqiy va sohta bo'lishi mumkin. Agar kishi jamoatchilikni aldasa, burch, vijdon hissini sezmasa, o'z hatti- harakatlarini sun'iy namoyish etsa, bu holda uning barcha karakterlari sohta bo'ladi. Aksincha jamoatchilik tomonidan shahs hatti- harakatlari yuqori baholansa, uning qadr- qimmatini haqiqiy bo'ladi.

Chunonchi jamiyat a'zosi ijtimoiy bahodan chetda qolmaydi, bu tushunchani insonning fuqaro sifatida karakterlab beradi.

Shahs or- nomusi jamoa or- nomusi bilan chambarchas bo'liqdir. Jamoaning shon- sharafi uning har bir a'zosining ham shon- sharafidir.

O'zbek halqining olijanob milliy fahri, `ururi, or- nomus tuy`usi, shon- sharafi tarihiy hotirasi va intilishlari uning bayroq, tam`a madhiyasida mujassamlashtirilgan. Mana shu ramzlarni e'zozlash- o'zining qadr- qimmatini, o'z mamlakatiga va shahsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir. O'z mamlakati bilan fahrlanadigan inson juda ko'p narsalarga qodir. Bu esa oilaning ham, o'z Vatanining ham shon- shuhratini oshiradi. O'zbek halqining yuksak milliy qadr- qimmatini, or- nomusi va shon- sharafi uning o'ta mehribonlik va sof vijdonlilikiga asoslangandir.

Shunday qilib, inson o'zida ijobiy xususiyatlarni ongli ravishda anglab va tarbiyalasagina u vaqtda boshqalarni ham hurmat qila oladi, bular ahamiyatini anglash bilan shahs o'z- o'ziga hurmatini shakllantiradi, bu o'z navbatida o'z- o'zini nazorat qilishdir.

Inson qadr- qimmatining mezoni adolatli va insonparvarlik, ya'ni insoniylik darajasi bilan, burchni bajarish darajasi bilan belgilanadi. Umuman or- nomus va qadr- qimmat tushunchasi kishining ichki ma'naviy asosini shakllatirishga xizmat qilishi lozim. Bu kishidan ijtimoiy- siyosiy faollikni, ol'a intilishni, intizomli, madaniyatli va ishchan bo'lishni talab etadi.

Insoniyat tarihi turli- tuman voqea va hodisalarga juda boy. Tarihda shunday hodisalar borki, ular necha asrlardan keyin ham avlodlarning tahsiniga sazovor bo'ladi. Biroq yana shunday voqealar ham borki, ular cheksiz nafratu `azab bilan tilga olinadi. Bu o'rinda gap vijdon haqida borayotir.

Vijdon murakkab muammo, shuning uchun bo'lsa kerak, uning tabiati haqidagi masala insoniyatning il'or mutafakkirlarini qiziqtirib kelgan. Vijdon nima, u abadiy mavjudmi, hammada vijdon bir hildi, u insongagina hosmi, uni qanday tarbiyalash mumkin? kabi masalalar, ya'ni vijdon tushunchasining kelib chiqishi, uning mohiyatini o'tmishda muayyan manfaatini ko'zlagan holda hal etilgan.

Vijdon ijtimoiy jihatdan shartlangan ijtimoiy tuy'u, u jamiyat talablariga muvofiq mehnat jarayonida vujudga keldi, boshqacha aytganda vijdon shahsning ahloqiy jihatdan qaror topishida muhim rol o'ynaydi. Vijdon azobi shahsning ma'naviy hayotida salbiy rol o'ynaydi, reja va maqsadlarini barbod qilish, shuningdek shahsiy yo'lini tubdan burib yuborishi ham mukin.

Vijdon ahloqning umuminsoniy oddiy normalari adolat va insonparvarlik printsiplari bilan, shuningdek yahshilik, baht va burch kategoriyalari bilan chambarchas aloqadordir. Chunonchi vijdon faqat shahsning o'ziga emas, balki boshqa kishilarga, ijtimoiy manfaatlarga munosabatni ham ifodalaydi. Demak ona Vatan manfaatini jamiyat oldidagi burch hissi, uning ahloqiy ma'suliyat hissi vijdon tuy'usi bilan uy'unlashib ketgan.

Shunday qilib, vijdon tushunchasi o'z- o'zini anglash mahsuligina emas, u ob'ektiv mazmunga ega bo'lib vijdon erkinligi bilan bo'liqdir. Chunki jamiyatdan ajralagan holda erkin, ozod insonning bo'lishi mumkin emas. Vijdon erkinligi- kishining jamiyat talablariga muvofiq qilish zarurligini anglashdir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 31 - moddasida shunday deyiladi: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson hohlagan dinga e'tiqod qilish, hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi"

Vijdon insonning o'z hulqini muayyan ahloq normalari nuqtai nazaridan ahloqiy baholashi va nazorat qilishi, boshqacha aytganda, ya'ni ma'suliyat hissi, shahsning jamiyat, sinf, oila oldida, boshqa odamlar oldidagi ahloqiy ma'suliyat hissi, o'z hatti- harakatlariga o'zi baho berishdir, shuningdek kishining o'z harakatlarigagina emas, balki tevarak- atrofida sodir bo'layotgan voqealar uchun javobgarlik hissi hamdir. Vijdon kishining ijtimoiy yo'sinida tarbiyalandigan qobiliyatidir, shu bilan birga uni voqeilikka amaliy munosabat undovchi hamdir.

Inson o'z hayotida turli hatti- harakatlar qiladi, bu hatti- harakatlar kishilarning ijtimoiy manfaatlariga biron darjada taalluqli bo'ladi. Vijdon shahsni ahloqiy hatti- harakatga undasa u buyruq harakterida bo'ladi va kishini faollashtiradi. Bu buyruq harakteri hatti- harakatini tanlash vositasiga aylantiradi. Vijdon ehtiros, hissiyot shaklida, ya'ni o'zining noto'ri harakatlari uchun pushaymon bo'lish, uyalish yoki ahloqiy qoniqish shaklida namoyon bo'ladi. Hissiy kechinmalar kishini amaliy faoliyatiga undaydi. Vijdon hissini tarbiyalashda jamoaning fikri `oyat muhim rol o'ynaydi. Uyoki bu kishi ishlayotgan va yashayotgan jamoa unga muayyan talablar qo'yadi va bu talablarga hilof ishlar sodir bo'lgan taqdirda shahsga nisbatan turli ta'sir choralari qo'llashi mumkin. Kishining ahloqiy onglik darajasiga va uning hatti- harakatlariga qarab, jamoa uning ishlarini ma'qullamasligi keskin tanqid kuchi bilan ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Aksincha kishi o'z vazifalariga vijdonan qarasa, jamoa uni ma'qullaydi, bu shahsning qadr- qimmatini oshiradi.

Vijdon hissi mustaqil respublikamiz hayotining barcha sohalarida kishilararo munosabatni tartibga solishda, halq iste'mol mollarni sifatli ishlab chiqarishda, tinchlikni, barqarorlikni saqlashda, iqtisodiy qaramlikdan qutulish va qo'shma korhonalarni ochish, qishloq ho'jalik mahsulotlarini ko'paytirish va hokazolarda ahloqiy omilga aylanib bormoqda. Yangicha tafakkur, yangicha tashabbus, mustaqillik yo'lida yangicha qadam shiori- bu mehnatkashning vijdoni, uning vijdon amridir. Bularning hammasi mustaqil O'zbekiston halqining ahloqiy pokligining dalilidir.

Ular o'z vijdon, amri bilan faqat o'zi haqida emas, balki butun mamlakat, halq manfaati bilan yashayotganligidan dalolat beradi. Demak jamiyatimiz insoniy vijdonning takomillashuviga amalda ko'maklashmoqda.

#### **Tavanch tushunchalari**

Tamoyil, mezon, gumanizm, vatanparvarlik, insonparvarlik, yahshilik, yomonlik, burch, vijdon, adolat, or- nomus.

#### **Takrorlash uchun savollar**

1. Ahloqiy tamoyillarning o'ziga hos hislatlari nimada?
2. Ahloqning mezoniy tushunchalarini sharhlang?
3. Mezoniy tushunchalarning inson kamolatiga ta'siri qanday?

### **5- Mavzu: Oila, fuqarolik jamiyati va davlatning ahloqiy asoslari**

Reja:

1. Oila - ahloqiy tarbiya maskanidir.
2. Muhabbat- chin insoniy fazilat
3. Oilaning quvonch va tashvishlari.
4. Fuqrolik jamiyati va ahloqiy madaniyat.

1. Oila- shu birgina so'z zamirida olam- olam hayot, turmush, sevinch va izzitoblari, baht, iqbol, quvonch, tashvishlari dil hotirasida namoyon bo'ladi. Qalbdagi ajib tuy'ular, hislar uy'onib moziyga aylangan kunlar hotiradan o'tadi.

Har bir insonning o'z oila dostoni bor. Oilani ta'riflashga so'z o'jiz. Negaki, dunyoga kelgan har bir o'ʻil- qiz o'z oilasida tarbiya topadi. O'z onasi va otasi chehrasini dastlab murʼak qalbiga muhrlaydi. Ilk bor "ota", "ona" so'zlarini qayta- qayta takrorlaydi. Hali tili chiqmagan chaqaloq uyqudan turib onasi yoki otasi diydorini ko'rishi bilan jajji yuzlarida ilk bor tabassum jilva qiladi.

Ota- onadan boshqa begona odam ko'tarsa, chirillab yi'laydi, ota- ona qonidan o'tgan mehr niholi kunlar, oylar, o'tishi bilan chuqur ildiz otib boradi. Shu tariqa ota- ona va farzand o'rtasidagi uzilmas mehr zanjiri paydo bo'ladi. Ana shu zanjir oila poydevorini mustahkamlaydi.

Ota- ona va farzand o'rtasidagi bebaho mehru, muhabbat tufayli oila a'zolari o'zlarini bahtiyor hisoblaydilar. Har bir insonga bundan ortiq baht kerakmas. Yahshi, tinch, ahil, muruvvatli, oilada tarbiya topayotgan, umrguzaronlik qilayotgan har bir inson o'zini bahtiyor hisoblaydi, ya'ni yuzida nur, qalbida shuur jilolanib turadi. Ular o'qishda, imtihonda ham o'zlarini erkin his qiladilar, hursand bo'lib yuradilar, odamlarga shirin muamilada bo'ladilar, yahshi o'qishga berilib mehnat qilishga harakat qiladilar, o'zlarini tetik va bardam tutadilar. Zotan oiladagi bahtiyorlik, jamiyatdagi bahtiyorlik, bilan chambarchas bo'lanib ketishi naqadar yahshi.

Hozir O'zbekistonda 27 millonga yaqin aholi, 5 millondan ziyod oila mavjud. Har yili o'rtacha 250 mingdan ortiq yangi oila qurilmoqda.

Oila bilan bo'liq muammolar ham juda ko'p. Chunki har bir oila a'zosi o'zi bir olam. Har bir inson o'zi bir dunyo. Har bir oila o'ziga hos bir mamlakat. Oila boshliqlarining aql- zakovati, donoligi, mehnatsevarligi, adolatli ish yuritishi, ahloq- odobi, imon- e'tiqodi shu honadon a'zolarining osuda hayoti uchun asosdir.

Dunyodagi har bir halqning o'ziga hos oila qurish va tarbiya usuli mavjud. Ota- onaning burchi, farzandlik burch, nikoh tartibi, oilaviy rasm- rusumlari shakllangan. O'zbek halqi ham qadimdan oilaviy tarbiyaga katta e'tibor berib kelgan. Asrlar davomida o'zbekona oilaviy urf- odatlar, rasm- rusumlar, to'y va marosimlar, bayramlar maydonga kelgan. Ular nihoyatda boy va rang- barang, tarbiyaviy ahamiyatga molik. Har bir viloyat va tuman, hatto qishloqning oilaviy urf- odatlari o'ziga hosligi bilan ajralib turadi.

Sobiq SSSR davrida sharqona oilaviy tarbiya usullarimizga ham kamsitish nazari bilan qaraldi. Ovrupacha turmush tarzi, yagona sovet oilasi keng tar'ib qilinda, nikoh, janoza o'qitish diniy sarqit hisoblandi.

Oilaning ikki muqaddas ustuni bor. Biri- ota, ikkinchisi- ona. Ana shu ikki ustun oila qasrini mustahkam ushlab turadi.

Alisher Navoiy ushbu misralarda ota- ona hurmatini nihoyatda ulu'laganlar:

Boshni fido qil' il ato boshiga,

Jismni qil sadqa ano qoshiga,

Tun kuniga aylagil nurposh

Birsin oy ay-la, birsin quyosh.

Ota- oila podshosidir. Oilani uy- joy, oziq- ovqat, kiyim- kechak bilan ta'minlash, tinch turmush kechirishni saqlash otaning zimmasida. Qolaversa oilaning bosh tarbiyachisi hamdir. Shu sabab oila boshli'i tinmay mehnat qiladi, aziyat chekadi, yuguradi- eladi.

Oilada voyaga etayotgan o'`il- qizlarga otaning donoligi, mehnatsevarligi, yumshoq ko'ngilliligi, adolatligi, o'zidan katta-yu kichikka munosabati chuqur ta'sir ko'rsatadi. Har bir farzand otadan o'rnak olishga, unga o'hshagan inson bo'lishga harakat qiladi. Hatto yosh bolalar o'z dadasi qilgan yahshi amallarni so'zlab maqtanishni yahshi ko'radilar. Ota qanday lavozimda ishlashidan qat'iy nazar uyda, kekxa ota- onasi, hotini va o'`il qizlariga kamtarlik bilan hushmuomalada bo'lishi lozim. Kerak bo'lganda kechirimli, mard, ko'ngilchan ham bo'lishi zarur.

Oiladagi etishmovchiliklar, turmush ikr- chikirlari, oila a'zolari va farzandlar o'rtasidagi nizoli ziddiyatlar ota- va ona ruhiyatiga ta'sir qilib, oqibatida janjal, kelishmovchiliklar sodir bo'ladi. Shunda har qanday masalani ham ota- bosiqlik, vazminlik bilan hal etishi foydalidir.

Har bir ota- farzand tarbiyasi uchun ma'suldir. Halqimizda "Ota rozi- hudo rozi" degan naql bor.

Pay`ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vassallam shunday deganlar:

"Kimki ota- onasining roziligini olgan bo'lsa unga qanday yahshi! Tangri uning umrini uzaytiradi"

Ahmad Donishning ushbu misralarida ham otaga yahshilik qilish hamda oqibati bayon qilinadi:

Sen otangga har na qilding yahshilik,

Kut bolangdan yahshilikka yahshilik.

Dunyoga mashhur olimu fuzalolar, shoiru yozuvchilar, milliy qahramonlar davlat arboblari ne- ne taniqli insonlarni tarbiyalab el hizmatiga yo'llangan otanalar bor. Ular millat fahridir.

Afsuski farzand tarbiyasi bilan zarracha qiziqmaydigan topganini harom-harishga, maishatga, ichkilikka sarf qiladigan, otalik nomiga do` keltirib sharmandayu sharmisor bo'lib yurganlar ham yo'q emas. Ana shular kasriga har yili oilaviy ajralishlar sodir bo'lmoqda.

Ona oilaning ikkinchi ustunidir. Yahshi tarbiya ko'rgan, aqlli, dono farosatli, mehnatsevar, imon- e'tiqodli ayollar oila fahridir. Unday onalarning shirin muomilasi, bilimdonligi, tadbirkorligi, olijanobligi fazilatleri asta- sekin o'`il- qizlarga o'tadi. Negaki "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bejiz aytishmagan.

Tabarruk onalarga izzat- ehtirom halqimizga hos fazilatdir. Pay`ambarimiz Muhammad sallollohu alayhu vassallam fahr bilan "Jannat onalar oyo'i ostidadir". "Yahshilikni dastlab onaga, so'ngra otaga qiling" deb aytganlar.

Onalar haqida yuzlab ertaklar, hikmatlar so'zlar, maqollar, she'r va dostonlar, rivoyatlar bitilgan. Onalarni qanchalik ta'rif qilsa shuncha oz. Har bir oqila ona o'zi bir olam. Uning orzu - umidlari, dardu- hasrati, quvonch va tashvishlarini bitish mushkul.

Qur'oni Karimning "Niso" surasida hotin- qizlarning ahloq- odobi, oila, jamiyat oldidagi burchi, farzand tarbiyasi, masalalari aniq, ifoda etilganki, olloh ayollarni naqadar ulu'laganligiga ishonch hosil qilamiz.

Ushbu surada er- hotin o'rtasidagi munosabatlar, bir- birlari oldidagi huquq va burchlari, etim - esirlarning haq- huquqlari, meros hukmlari ham bayon etilgan.

2. Muhabbat chin- insoniy fazilat. Dilbar va nafis, hayotbahsh va otashin muhabbat bahtli hayot, bebaho yoshlikning shirin mevasidir. Har bir insondagi eng yahshi, yoqimli, qudratli fazilatlar bunyodkori, hamisha oldinga qarashga, ezigulikka chorlovchi tuy`u ham sevgi, muhabbatdir.

"Sevganingda, o'zingda shu qadar nafosat mulkini, shunchalik mayinlik, mehribonlik tuy`usini kashf etsanki, ba'zida hatto o'zing ham shunchalik seva olishga qodirligiga ishona olmay qolasan",- degan edi kishi qalbini `oyat nozik tushunadigan yozuvchi A.P. Chehov.

Yigit va qizlarning bir- biriga nisbatan bo'lgan o'zaro hurmati, inoqligi, do'stligi, yonma- yon yurishdan huzur qilishi zaminida ikki tomonda ham teng tu`uladigan sevgi, muhabbat insonning barcha his- tuy`ulari ichidagi eng sehrli, nihoyatda olijanob, serjoziba tuy`udir. Qolaversa, bu tuy`u kelgusi hayotning bahtiyor damlari haqidagi rejalar va ro'yobga chiqajak orzular manbai, jasorat kaliti va baht yulduzi hamdir.

Bu go'zal, qaynoq, ardoqli, ulu`vor tuy`ular, yillar, asrlar, davrlar osha buyuk allomalar, mutafakkirlar adabiyot va san'at namoyondalari tomonidan mahorat bilan inkishof etilib kelinayotgani insoniyat tirikdirkim avj pardadan tushmasligi ham aniq.

Aflotun, Tsitseron, Lope de Vega, M. Servantes, A. Navoiy, A. Jomiy, Bobur, Petrarka, Fuzuliy, V. Shekspir, A. Pushkin, A. Tolstoy, Hamza, A. Qodiriy, S. Ayniy, Oybek va boshqalarning asarlarida kuylangan sevgi uning chin insoniy fazilat ekanini ko'rsatibgina qolmay, bu buyuk tuy`uni ardoqlashga ham da'vat etadi, avlodlarni hayajonga soladi. Farhod va Shirin, Layli va Majnun, ~ofir va Jamila, Otabek va Kumush, Anvar va Ra'no, Yo'lchi va Gulnorning hayoti , kurashi va taqdiri qaysi bir qalbni larzaga solmagan? Nima uchun kishilar o'zlari oshiq va ma'shuqa bo'lgan damlardagina emas, qaysi yoshda bo'lishidan qa'ti nazar dili poklikka, ezigulikka chanqoq bo'lgan damlarda ham ana shu asarlarni qayta- qayta qo'lga oladilar, tunlari bedor o'qiydilar? Nima uchun shu qahramonlarning hayoti, sevgi muhabbati, bir- biriga insoniy vafosi, sadoqati yoshlarga hamisha o'rnak?

Shu savollarni o'ziga o'zi qayta- qayta bermagan kishilar topilarmikin?

Klassik she'riyatimiz malikasi Nodirahonimning ushbu misralari shu savollarga javob emasmi?

Muhabbatsiz kishi odam emasdir,

Gar odamsan muhabbat ihtiyor et,



Kuyib, ey Nodira olam eliga,  
Muhabbat ishvasin oshkor et.

Nizomiy Samarqandiyning "Noyob to'plamlar" asarida shunday bir voqea hikoya qilinadi: Qobus podshoning jiyani o'ir dardga chalinadi. Hatto boshqa mamlakatlardan taklif qilingan tabiblar ham bu yosh yigit dardiga malham topa olmaydilar. Nihoyat, bemor yoniga Abu Ali Ibn Sinoni olib kelishadi. Endigina o'n sakkiz bahorni qarshilayotgan nihoyatda go'zal yigitning kuch va quvvatidan qolganligi, holsizligi va ichki tuy'ularini sir tutayotganligini sezgan Ibn Sino yigit tomirini ushlub turib, uning qaysi shaharda tu'ulib katta bo'lganligini, shu shahar dahalari, mahallalari, ko'chalarini nomma- nom aytib berishini iltimos qiladi. Yigit tabib irodasini bajargach, tabib tilga olingan ko'chalardan biridagina barcha honadon va uning a'zolarini bir- bir sanash joizligini aytadi. sanab o'tilayotgan orasida bir sohibjamol qizning ismi tilga olinganda, bemor yigitning yuziga qizillik yugurib, yumuq ko'zlarini asta ochadi. Bemor yigitning tomiridan barmo'ini olmagan Ibn Sino muloyim kulib:

- yigitning dardi oshqlik. O'shal qiz bilan bo'lajak visol dardning davosidir. To'y- tomosha harakatini boshlash lozim,- deydi.

Ba'zilar hozir haqiqiy muhabbat yo'q, u o'zining haqiqiy ma'nosini yo'qotdi, deya ko'p gapiradilar. Bunga misol qilib bir- ikki yil do'stlashib, turmush qurib, hatto farzandli bo'lganda ajralib ketayotgan yoshlarni ko'rsatadilar. Insoniy sevgi, oila, farzand oldidagi o'z burchini unutayotgan yoshlar yo'q emas. Sevgi o'zing mehr qo'ygan kishingning hayoti, orzu- havasi bilan yashash demakdir. Bir- birini tushunish, hurmat qilish, e'zozlash asosdagina bu tuy' u chuqur ildiz otadi. Muhabbat fidoyilik va sadoqatdan oziq oladi. garchi bu tuy' u ifodasi uchun bir hil so'zlar ishlatayotgan bo'lsak-da, muhabbatni har bir qalb o'zicha kashf etadiki, hech qaysisi bir- birini takrorlamaydi. Har bir inson muhabbatning o'ziga hos quvonchi, shodligi, bahti, tarovati, ayni paytda tashvishi, `ami, hijronini boshidan kechiradi.

Sevgi kirgan qalb poklanadi deyдилar. Chinakam sevgi yigit qalbiga Alpomishu Rustamdek kuch, Go'ro'liyu Farhoddek jasorat, Yusufu Otabekdek ko'rkamlik bahsh etadi. Ana shunday go'zal fazilatlar egasi bo'lishni balo`atga etgan qaysi yigit va qiz orzu qilmaydi? Layliyu Shirin, Barchinoyyu Kumush, Ra'noyu Jamilalarning o'z sevgisiga sadoqati, vafosi, shu yo'lda jon fido qilishga tayyorligi qizlarimiz uchun hamisha mayoqdir.

Sevgi- ahloqiy hissiyot bo'lib, har bir inson kamolatida ijobiy rol o'ynaydi. Oshiq yigit va ma'shuqa qiz o'zida insoniy fazilatlar chuqurroq ildiz otishini orzu qiladi. O'zini yanada go'zal, barkamol, hushmuomala, kamtar, mard, sahiy, ochiq ko'ngil qilib ko'rsatishga harakat qiladi.

Sevgining ijtimoiy ahamiyati ham shundadir. Bunday sevgi zaminida o'z idealidagi kishi bilan oila qurish va o'zidan avlod qoldirish maqsadi yotadi, oshiq va ma'shuqalar o'rtasidagi insoniy munosabatlar chuqurlashib, o'zaro hurmat, e'zoz, mehribonlik, fidoyilik fazilatlarini mustahkamlanib boradi.

3. Mustaqillik tufayli o'zbek halqi o'zligini anglay boshladi. Qadimiy va boy oilaviy urf- odatlarimiz, qadriyatlarimiz tiklanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bo'lim, XIY bobi "Oila" deb nomlanib, 63-66 moddalar oilaviy- huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qoidalaridir. 46- moddada hotin- qizlar va erkaklar teng huquqligi ko'rsatilgan.

Konstitutsiyaning 63- moddasida shunday deyiladi: "Oila jamiyatning asosiy bo'linidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega".

Shu moddaning ikkinchi qismida nikohdan o'tishning ihtiyoriligi ko'rsatilgan: Nikoh tomonlarning ihtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi".

O'zbek halqi qadimdan nikoh va oila qurishga katta ahamiyat bergan. Chunki nikoh insoniy poklikka, nasl tozaligiga, oila muhsathkamligiga garovdir. Mamlakatimizda nikohdan o'tish yildan yilga ko'payib borayotganligi, oilaviy ajralishlar esa boshqa davlat halqlariga nisbatan, dunyo bo'yicha eng past ekanligidan quvonishga haqlimiz.

Konstitutsiyaning 64- moddasiga binoan ota- onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlirlar. Voyaga etmagan, mehnatga layoqatli farzandlar esa o'z ota- onalari haqida `amho'rlik qilishga, ularga ma'naviy va moddiy yordam berishga majburliklari ko'rsatilgan.

Oliy Majlis tomonidan 1998 yilda qabul qilingan "Oila" kodeksi halqaro normalarga javob beradigan tarihiy hujjat bo'lib, unda umuminsoniy qadriyatlar va milliy urf- odatlar, an'analar o'z ifodasini topgan. Prezidentimiz I. Karimov tomonidan 1998 yil "Oila yili", 1999 yil "Ayollar yili" deb atalishi zaminida ham chuqur ma'no borligi o'z- o'zidan ayondir. Ana shu yillar oilaviy munosabatlarni yahshilash, kam ta'minlangan oilalarni himoya qilish, pensiyalar, nogironlar, bolalarga har tomonlama yordam berish borasida ko'p hayrli ishlar amalga oshirildi.

Respublika "Oila markazi" ham oilaviy muammolarni o'rganish va ijobiy hal etish borasida bir qator tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Yahshi oila ajoyib bir bo'stondir. Unda dunyoga kelgan har bir yosh go'dak mehr- oqibat, imyon- e'tiqod, halollik- poklik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, el- yurt uchun fidoiylilik bulo'idan bahramand bo'lib voyaga etadi. Yahshi ota- ona tarbiyasini ko'rgan o'il- qiz birinchi navbatda o'z ota- onasi va oila a'zolariga, qolaversa barcha insonlarga mehr- muhabbatli bo'ladi.

#### **Tayanch tushunchalar**

Oila, nikoh, muhabbat, sevgi tuy'usi, farzand burchi, oila sha'ni, nomus, vafo, oila kodeksi, oila yili, fuqarolik jamiyati.

#### **Takrorlash uchun savollar**

1. Nikohning ahloqiy mohiyati nimada?
2. Farzand tarbiyasida ota- onaning o'rni qanday?
3. Ahlohiy tarbiya nima?
4. Sevgi, muhabbatga izoh bering?

Ushbu uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida tayyorlangan bo'lib, qishloq ho'jalik Oliy o'quv yurtlari yosh muallimlarning "Etika" fanidan ma'ruza o'qishlari va amaliy mash'ulot olib borishlari hamda bakalavriyat talabalarining bu fanni o'zlashtirishlariga yordam tariqasida yozilgan.

## MUNDARIJA

|                                                                  |    |
|------------------------------------------------------------------|----|
| Kirish .....                                                     | 4  |
| 1. Etika fani predmeti, maqsadi va vazifalari.....               | 5  |
| 2. Qadimgi dunyo mutafakkirlari ahloqiy tarbiya haqida.....      | 8  |
| 3. O'rta Osiyo mutafakkirlarining ahloqiy ta'limotlari.....      | 15 |
| 4. Ahloqning mezoniy tushunchalari .....                         | 22 |
| 5. Oila, fuqarolik jamiyati va davlatning ahloqiy asoslari ..... | 29 |

Bosishga ruxsat berildi 17.03.07. Bichimi (60x84) 1/16. Shartli bosma tabog'i 2.3.  
Nashriyot bosma tabog'i 2.3. Adadi 200 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda

---

O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasining 21-0941 sonli guvohnomasi  
asosida ToshDAU nashr tahririyati bo'limining RIZOGRAF apparatida chop etildi.

